

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI



QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

IQTISODIYOT FAKULTETI

«IQTISODIYOT» KAFEDRASI

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»

«Iqtisodiyot» kafedrası mudiri
_____ dots. A.I.Raxmatullayev
«___» _____ 2015 yil

«TASDIQLAYMAN»

«Iqtisodiyot» fakulteti dekani
_____ i.f.d., prof. A.F.Xurramov
«___» _____ 2015 yil

“Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati (Chiroqchi tumani iqtisodiyot bo‘limi misolida)”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: «Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)»
bakalavr ta’lim yo’nalishi IV-kurs II-461gruh
talabasi _____ Norqulov Davron

ILMIY RAHBAR:
«Iqtisodiyot» kafedrası dotsenti
_____ Z.S.Shoxo’jayeva

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi

_____ sonli bayonnoma «_____» _____ 2015 y.

QARSHI – 2015 yil

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri _____ A.Raxmatullayev
«____» _____ 20__ y.

1. **Talaba:** *Norqulov Davron Gulmurodovich*
2. **Ta’lim yo‘nalishi:** *5230100- Iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)*
3. **Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati*
4. **Bitiruv oldi amaliyoti o‘tilgan joy:** *Chiroqchi tumani Iqtisodiyot bo‘limi*
5. **Bitiruv malakaviy ishi rahbari:** *dotsent Z.S.Shoxo‘jayeva*
6. **Bitiruv malakaviy ishi maqsadi:** *Chiroqchi tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyos bo‘lib, xususiy tadbirkorlikni barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta’minlashga oid ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.*
7. **Ish rejasi:**

Bitiruv malakaviy ishi bo‘limi	Bitiruv malakaviy ishi bo‘limi nomi	Bajarish muddati
Kirish	<i>Mavzuning dolzarbligini, ilmiy va amaliy ahamiyatini, maqsadi va vazifalarini hamda ilmiy yangiliklarini yoritish</i>	08.12.2014-20.12.2014 y.
I Bob	<i>Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy-huquqiy asoslarini yoritish</i>	22.02.2014-23.01.2015 y.
II Bob	<i>Chiroqchi tumanida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishining hozirgi holati va kelajak imkoniyatlarini tahlil qilish</i>	26.01.2015-20.03.2015 y.
III Bob	<i>Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish istiqbollari yoritish</i>	23.03.2015-24.04.2015 y.
Xulosa va takliflar	<i>O‘rganilgan muammolar bo‘yicha xulosalar qilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish</i>	04.05.2015-15.05.2015 y.
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	<i>Mavzuni yoritishda ilmiy manbalardan, darslik, o‘quv qo‘llanma va uslubiy qo‘llanmalardan foydalanish</i>	18.05.2015-02.06.2015 y.

8. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo‘lgan materiallar:

a) **adabiyot manbalari:** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, respublikamiz va xorijdagi yetakchi agrar-iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari va asarlari.*

b) **qonuniy-meyoriy hujjatlar:** *O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlar.*

v) **statistik va boshqa ma’lumotlar:** *respublika Davlat Statistika Qo‘mitasi, viloyat statistika boshqarmasi va Chiroqchi tumani Iqtisodiyot bo‘limi ma’lumotlari.*

9. Tasvirlash materiallari: *jadval, chizma va slaydlar*

10. Topshiriq berilgan kun: *01.12.2014 yil*

11. Ishni topshirish muddati: *08.06.2015 yil*

12. Ilmiy rahbar: _____ *dots. Z.S.Shoxo‘jayeva*

13. Kafedra mudirining bitiruv malakaviy ishini himoyaga qo‘yish haqidagi xulosasi

MUNDARIJA

Kirish.....

1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy-huquqiy asoslari.....

- 1.1. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va ular faoliyatini tashkil etishning nazariy huquqiy asoslari.....
- 1.2. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati.....
- 1.3. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanishning jahon amaliyoti tajribalari.....

2- Bob. Chiroqchi tumanida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishining hozirgi holati va kelajak imkoniyatlari.....

- 2.1. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va bozor islohotlarini amalga oshirish natijalari.....
- 2.2. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish darajasi va samaradorligi tahlili.....
- 2.3. Jalb etilgan investitsiyalar hisobidan tumanda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari.....

3-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish istiqbollari.....

- 3.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....
- 3.2. Xususiy tadbirkorlik faoliyatini diversifikatsiyalashda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....

Xulosa va takliflar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi.

Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini erkinlashtirish va modernizatsiyalash, yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga yanada yangi zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish va investitsiyalar jalb qilishni takomillashtirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "2014-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion so'mdan ortiq yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p, shu jumladan, 2 trillion so'mga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi. Bu o'tgan yilga qaraganda 39 foiz ko'pdir. So'nggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko'paydi."¹.

Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000-yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi.

2014-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000-yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Ana shu raqamlardan ko'rinib turibdiki, xususiy tadbirkorlar shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda.

Mamlakatimiz, jumladan Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda bir qator ijobiy yutuqlarga erishildi. Tadbirkorlarning qonunchilik va xuquqiy meyoriy asoslari mustaxkamlandi, soliq tizimi sodalashtirildi, kreditlar berish miqyosi kengaytirildi. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat mahsulotidagi hissasi 51,5 foizni tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotdagi jami ish bilan bandlarning 78,4 foizini (869,5 ming kishi) kichik biznes tadbirkorlik sektorida band bo'lganlar tashkil qildi.

Lekin erishilgan natijalar bilan bir qatorda hal qilinmagan muammolar mavjud. Bular tadbirkorlikni rivojlantirishda xuquqiy, tashkiliy va iqtisodiy imtiyozlardan to'la foydalanmaslik, bozor infratuzilmasining talab va taklifdan kelib chiqqan holda rivojlanmaganligi, qo'shni xorij mamlakatlar va hududlar bilan iqtisodiy hamkorlikni sustligi, mavjud mahalliy imkoniyat va rezervlardan oqilona foydalanmaslik, ichki va tashqi investitsiyalardan foydalanishdagi

¹Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 17.01.2015.

muammolar, shuningdek, davlat va mahalliy xokimiyatning tadbirkorlarni ichki ishlariga aralashuvi va boshqalar.

Mavjud muammolarni hal qilish, xususiyl tadbirkorlikni tumanning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi mavqeini yanada oshirish ko'p jihatdan hududning o'ziga xos xususiyatlaridan unumli foydalanishga bog'liqdir. Hududdagi mavjud ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy vaziyat, tabiiy va iqtisodiy salohiyat xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos va mos bo'lgan tadqiq qilish va rejalashtirish uslubiyatlarni hamda tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish darajasini oshirishga doir aniq chora tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo qiladi. Ushbu muammolardan kelib chiqib, tanlangan mavzu o'ta dolzarbdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ishning maqsadi Chiroqchi tumanida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lib, xususiyl tadbirkorlikni barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga oid ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

BMIning maqsadidan kelib chiqqan xolda quyidagi vazifalar belgilab olingan va hal qilingan:

- xususiyl tadbirkorlikni hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri asoslab berilgan;

- tadbirkorlikni rivojlantirishda hududlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

- hududda xususiyl tadbirkorlikni tahlil qilish va istiqbolini belgilashning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan;

- viloyatda va uning tumanlarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati tahlil qilingan;

- hududda xususiyl tadbirkorlik istiqbolini belgilovchi iqtisodiy va tabiiy salohiyatga baho berilgan;

- tumanda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari asoslab berilgan;

- xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan.

BMIning obyekti. BMIning obyekti sifatida tumanning o'ziga xos iqtisodiy, ekologik, va tabiiy sharoitga ega Chiroqchi tumanidagi xususiyl tadbirkorlik subyektlari tanlab olingan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Tumanning iqtisodiy rivojlanishida xususiyl tadbirkorlikni shakllanishi, boshqaruv usullari va mexanizmlari tadqiqotning predmeti hisoblanadi

BMIning nazariy va uslubiy asoslari bo'lib, hududiy iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, xorijiy va mamlakatimiz olimlarining asarlari va ilmiy ishlari xizmat qiladi.

BMIning ilmiy va amaliy ahamiyati.

BMIida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xususiyl tadbirkorlikni ustivor rivojlantirish orqali tumanning iqtisodiy barqaror o'sishini ta'minlashda keng foydalanish mumkin. Shuningdek, tumanning xususiyl tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish orqali aholining ish bilan ta'minlanish darajasini oshirishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. BMI matni ____ betdan iborat bo'lib, ____ ta jadval, ____ ta rasmni o'z ichiga olgan.

1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy-huquqiy asoslari.

1.1. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va ular faoliyatini tashkil etishning nazariy huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Davlat tomonidan bu sohaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, institutsional, moliyaviy elementlarni o'z ichiga oluvchi baza yaratildi, tegishli meyoriy-qonunchilik va tashkiliy-huquqiy holatlar takomillashtirilmogda. Keyingi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolatlari to'g'risida»gi qonuni, «Bank tizimini yanada erkinlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident Farmoni, kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi faoliyatini faollashtirish, fermerlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning boshqa subyektlarini qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek ularni mikrokreditlash borasidagi yangi tartiblar respublikada tadbirkorlikni rivojlanishi uchun iqtisodiy muhitni ahamiyatli ravishda yaxshilanishiga olib keldi.

Kichik korxonalarni litsenziyalash, ro'yxatga olish, hisobga qo'yish, hisobot berish va soliqqa tortish shart-sharoitlari soddalashtirilib, buning natijasida tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi ta'minlandi.

Biroq, qayd etish lozimki, yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida ko'plab yangi kichik biznes korxonalari tashkil etilishi bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy hayotning oqimiga «tusha olmagan» korxonalarning faoliyati tugatilib bormogda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mazkur holatning ro'y berishi qonuniyat doirasida bo'lib, bu nafaqat O'zbekistonda, balki jahonning rivojlangan mamlakatlarida ham kuzatiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada yangi tashkil etilgan korxonaning har uchtdan bittasi 2-3 yildan keyin o'z faoliyatini to'xtatsa, ro'yxatga olingandan 5-6 yildan keyin ularning umumiy sonidan faqat 30-35% qoladi. Germaniyada har yili 40 ming atrofida turli kichik korxona va firmalar tashkil etilsa, shu vaqtning o'zida ulardan 20-25 mingga o'z faoliyatini to'xtatadi. Bu avvalom bor kichik tadbirkorlik sektori uchun yangi texnologiyalarni keng miqyosda tatbiq etishdagi qiyinchiliklar, xususiy resurslarning cheklanganligi va raqobat kurashidagi yuqori darajadagi xavf-xatar xosligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 327-sonli qaroriga ilovada keltirilgan «Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to'g'risida Nizom»da «moliya-xo'jalik faoliyati» atamasi ostida korxonalarning buxgalteriya-moliya, hisob-kitob, tovarga ilova qilinadigan va statistika hujjatlarini yuritgan holda mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlarni amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar bilan, shu jumladan moliya, soliq, bank, bojxona va boshqa organlar va muassasalar bilan o'zaro munosabatlari tizimi tushuniladi.

Shunga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyatini namoyon etuvchi quyidagi yo'nalishdagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Iqtisodiy sherik va hamkorlar bilan o'zaro munosabatlar:

- mol yetkazib beruvchilar;
- turli ko'rinishdagi ish bajaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar;
- mahsulot xaridorlari (iste'molchilari) va boshqalar.

2. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatlarini tartibga soluvchi hamda nazorat qiluvchi muassasalar bilan o'zaro munosabatlar, jumladan:

- soliq idoralari;

- bo'xona idoralari;
- moliya tashkilotlari;
- bank muassasalari va boshqalar.

Kichik tadbirkorlik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari eng avvalo tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tabiatini belgilab beruvchi jihatlar orqali namoyon bo'ladi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunining 9.3-moddasida «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat»deb belgilab berilgan ta'rifga batafsil to'xtab o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur ta'rifning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yanada kuchliroq namoyon bo'luvchi muhim jihatlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ayni paytda ularning korxona moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri ahamiyatli hisoblanadi:

1. *Tavakkalchilik.* Tavakkalchilik – biznesning birinchi talabi bo'lib, u yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarga qaramay amalga oshiriladigan faoliyatdir. D.P.Alginaning fikriga ko'ra tavakkalchilik go'yoki tanlash majburiy bo'lgan sharoitda noaniqlikni bartaraf etish bilan bog'liq faoliyatdir.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, tavakkalchilik biznesning talabi va muvaffaqiyat garovi bo'lishiga qaramay, har qanday tavakkalchilik ham doimo o'zini oqlayvermaydi. Shunga ko'ra, ko'p hollarda asossiz ravishda qilingan tavakkalchilik tadbirkorlik faoliyatining to'xtatilishiga sabab bo'ladi.

2. *Mulkiy javobgarlik.* Mulkiy javobgarlik – bu tadbirkor tomonidan iqtisodiy resurslar – xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va tadbirkorlik qobiliyatidan foydalanganligi uchun har bir resurs egasi, sheriklar, ishtirokchilar, kreditorlar va umuman jamiyat oldidagi javobgarlikdir. Har qanday, hattoki oz miqdordagi iqtisodiy muvaffaqiyatsizlik uchun ham qaysidir ko'rinishda tadbirkor tomonidan javob berish sifatida qoplanishi, tovon to'lanishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunining 9.9-moddasida tadbirkorlik faoliyatlari subyektlari uchun belgilab berilgan. Mulkiy javobgarlik tadbirkorning o'z faoliyati uchun mas'uliyatini oshiradi, uning ko'r-ko'rona harakat qilish oqibatida sinishi holatlarini oldini oladi. Shu bilan bir qatorda, mulkiy javobgarlik tamoyilining amal qilishi natijasida, aksariyat hollarda tadbirkorning moliyaviy holati mushkullashishi ham mumkin.

3. *Tashabbuskorlik.* Tashabbuskorlik – tadbirkorlik faoliyati asosidagi eng muhim jihatlardan biridir. Har qanday tadbirkorlik hatti-haraqatining negizida tashabbus yotadi. Jamiyat ehtiyojlarini qondirish orqali daromad olish uchun, eng avvalo, tadbirkor ishlab chiqarish omillarini topish va ularni o'zaro biriktirish tashabbusini o'z qo'liga olishi darkor. O'z vaqtida va aniq ravishda ko'rsatilgan tashabbuskorlik – biznes muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi. Biroq, tashabbuskorlikning ham o'z javobgarligi, mas'uliyati mavjud. Har qanday muvaffaqiyatsizlik uchun javobgarlik birinchi navbatda uning tashabbuskori zimmasida bo'ladi. Shunga ko'ra, kichik tadbirkorlikda mulk egasi va tadbirkorlikning bir shaxsda namoyon bo'lishi aksari hollarda tashabbuskorlikning faoliyat natijalari bilan bog'liqligini yanada kuchaytiradi.

Odatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatlariga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida so'z borganda birinchi navbatda subyektiv omillar ko'rsatiladi. Chunki, ular o'z xususiyatlariga ko'ra alohida e'tibor va shart-sharoit taqozo etuvchi soha hisoblanadi.

Biroq, ko'pchilik holatlarda kichik biznes uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratish o'rniga, aksincha, uning rivojlanishida turli sun'iy to'siqlar barpo etiladi. Jumladan:

- kichik tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazishdagi rasmiyatchilik, to'rachilik va ta'magirlik holatlarining mavjudligi;
- mahalliy budjetni mablag' bilan ta'minlash va aholini ish bilan ta'minlashda majburiy tazyiqlarning o'tkazilishi;

- ba'zi holatlarda qonunda ko'zda tutilmagan faoliyat turlari uchun ham litsenziya olishning talab qilinishi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridan a'zolik ko'ngilli bo'lgan tashkilotlarga majburiy tartibda a'zo bo'lishning talab qilinishi va hokazo.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, kichik biznes korxonalari moliya-xo'jalik faoliyatining tugatilishiga ko'plab subyektiv omillar bilan bir qatorda, ularning iqtisodiy tabiatidan kelib chiquvchi obyektiv omillar ham ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Quyida biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tabiatidan kelib chiquvchi, ayni paytda uning beqarorligini kuchaytiruvchi, aksari hollarda uning tugatilishiga sabab bo'luvchi xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz.

1. *Kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi tavakkalchilikning yuqori darajasi.* Yuqorida ta'kidlanganidek, tavakkalchilik – tadbirkorlikning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi. Biroq, hayotiy tajribaning ko'rsatishicha, iqtisodiy subyektning xo'jalik yuritish miqyosi qanchalik kichrayib borgan sari uning asoslanmagan tavakkalchiligi shunchalik darajada oshib boradi. Yapon mutaxassislarning fikriga ko'ra, xo'jalik faoliyatidagi tavakkalchilik tufayli kichik firmalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash holati yirik firmalarga qaraganda 15-20 baravar ko'proq kuzatilar ekan. Bu o'rinda obyektivlik nuqtai nazaridan shuni ta'kidlash joizki, kichik tadbirkorlik sohasidagi iqtisodiy xavf-xatar, tavakkalchilik odatda yuqori bo'ladi, shunga ko'ra, yirik kompaniyalarga nisbatan kichik korxonalarining «hayotiy sikli» qisqaroq bo'ladi. Xatto sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlarda ham kichik korxonalar bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

2. *Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini bozor konyunkturasiga bog'liqligining kuchliligi.* Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik odatda mahalliy hudud doirasida faoliyat ko'rsatadi. Ustuvor ravishda mahalliy resurslardan foydalangan holda mahalliy bozorga mahsulot va xizmat taklif etish – bu sohaning ramziy sifatlaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, ishlab chiqarishni tashkil etish va uning natijalarini sotishda kichik va o'rta korxonalarining tanlov imkoniyatlari bir qadar cheklangan bo'ladi. Tanlash imkoniyatining cheklanganligi esa o'z navbatida bozor konyunkturasiga – resurslar talab va taklifi, ular narxining o'zgarishi, mahsulot sotish bozoridagi o'zgarishlarga bog'liqlikni yanada kuchaytiradi.

3. *Kichik korxonalarda xo'jalik mablag'larining hajm jihatdan ahamiyatsizligi.* Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatlari aksariyat hollarda ularning moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Korxonaning strategik va taktik ahamiyatdagi faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik bosh omil sifatida baholanadi. Bu borada yirik korxonalarda ma'lum barqarorlik kuzatilsa, kichik korxonalarining ahamiyatli qismi doimiy moliyaviy taqchillikni boshidan kechiradi. Bu tabiiy hol bo'lib, korxonalarining «hayoti»dagi rivojlanish xususiyatlari bilan izohlanadi. Korxona mablag'ining miqdoran ahamiyatli bo'lmasligi o'z navbatida uni boshqarishdagi ma'lum muammolarni yuzaga chiqaradi va ularning hal etilmasligi korxona faoliyatining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

4. *Maxsus, ixtisoslashgan boshqaruv tuzilmasining mavjud emasligi.* Odatda, yirik ishlab chiqarishdan farqli o'laroq, kichik va ba'zi hollarda o'rta korxonalarda maxsus boshqaruv tuzilmasi amal qilmaydi. Aksincha, har bir faoliyat yo'nalishi (mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi, sifati, uni sotish, marketing, moliyaviy masalalar va hokazo) bo'yicha ixtisoslashgan boshqaruvchi-mutaxassislarning vazifalari yagona shaxs – korxona rahbari-tadbirkorda uyg'unlashadi. Aksariyat hollarda mayda tadbirkor boshqaruv vazifasi bilan birga bevosita ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etish vazifasini ham qo'shib olib boradi. Bu jihatlar bir tomondan ijobiy natijalar, ya'ni boshqaruvda iyerarxiyaning bo'lmasligi sababli xo'jalik faoliyati to'g'risida muntazam axborotga ega bo'lish, yechim va qarorlarini qabul qilish tezkorligini oshirish, ularning bajarilish samaradorligini ta'minlanishiga olib keladi.

5. *Odatda raqobat kuchli bo'lgan soha va tarmoqlarda faoliyat ko'rsatishi.* Ma'lumki, tarmoqda yakkahukmronlik mavqeini qo'lga kiritish korxonalardan bir qator talablarning bajarilishini taqozo etadi. Bular jumlasiga yo hukumat tomonidan beriladigan litsenziya va

boshqa shu kabi huquqlarni qo'lga kiritish, yoki yuqori texnika va texnologiyalarga, ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lish, yoki mulkiy huquq egasi bo'lish kabi shartlarni kiritish mumkin. Shunga ko'ra, aksariyat hollarda bunday shartlarga ma'lum sabablarga ko'ra javob bera olmaydigan kichik va o'rta korxonalar tarmoqqa kirish bir qadar erkin bo'lgan faoliyat turlari bilan shug'ullanadilar. Tarmoqqa kirish erkinligi esa, o'z-o'zidan ma'lumki, undagi ishtirokchilarni ko'paytirish orqali raqobatning keskin bo'lishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun, hatto iqtisodiyoti barqaror bo'lgan mamlakatlarning kichik biznes sohasida ham faol xatti-harakat kuzatiladi.

6. *Moliyaviy jihatdan imkoniyatlarining cheklanganligi.* Ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish muammosi keskin bo'lib, odatda ularni kreditlash bank muassasalari uchun foydasiz hisoblanadi. Bu holat obyektiv asoslar orqali izohlanib, kichik va o'rta korxonalarda ko'pincha kreditni ta'minlash uchun aktivlar yetishmaydi, bu sohada bankrotlikning salmoqli qismi ro'y beradi. Bundan tashqari, banklar uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish yirik korxonalarga kredit berishga qaraganda ancha qattaroq operatsion sarf-xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra, ular aksari hollarda qayta moliyalash foizining o'zgarganligi, kreditning qaytarilmaslik havfining kuchliligi, shuningdek, qarzga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini bahona qilib, kichik tadbirkorlarga kredit berishdan bosh tortadilar. Mabodo qarz berilgan taqdirda ham asoratga soluvchi foizlar evaziga beradilar.

7. *Kichik biznes sohasi faoliyat natijasini oldindan to'liq belgilab bo'lmalik.* Kichik firmalar uchun faoliyatni rejalashtirish jiddiy muammo tug'diradi. Ularning faqat ma'lum qismigina ishlab chiqarishni rejalashtirishni amalga oshirsa, strategik rejalashtirishni yanada ozrog'ida kuzatish mumkin. Natijada ular ko'pincha malakali ishchi kuchiga bo'lgan yetishmovchilikka duch keladilar, iqtisodiy muhitning holatiga o'ta sezgir bo'ladilar: agar inflyatsiya tufayli xarajatlar darajasi daromadlardan oshib ketsa, firma inqirozga yuz tutadi.

8. *Kichik biznesning asosiy resurslar taqchilligi sharoitida amal qilishi.* Kichik biznes korxonasi amal qiluvchi mehnat bozorida jiddiy mintaqaviy va tarmoqqa oid nomutanosibliklar ko'zga tashlanadi. Birinchidan, mehnat resurslari harakatchan emas. Mehnat resurslari darajasining mazkur sifat jihatidan pastligi bir qator iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy va tashkiliy omillarning mavjudligi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, ish kuchining nisbatan arzonligi tufayli olish mumkin bo'lgan samara ular malakasining yetarli emasligi oqibatida yo'qolib ketadi. Kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga ayniqsa bilimli marketolog va iqtisodchilarning yetishmasligi qattiq ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznes uchun axborot bozori tartibsiz rivojlanadi va ma'lumotlarning yuqori sifatliyligi, dolzarbligi hamda ular narxlarining darajasi jihatidan iste'molchilarni qoniqtirmaydi. Mayda tadbirkor ma'lumotlarni norasmiy manbalar (shaxsiy aloqalar, tanish-bilishlar) hamda matbuot va reklama materiallari asosida tuzilgan ma'lumotlar bazasidan oladi.

1.2. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni va ahamiyati

"Investitsiyalar" tushunchasi serqirra tushuncha. Umuman, investitsiyalar deganda iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini oshiradigan har qanday joriy faoliyat tushuniladi. Mos ravishda, keyinchalik ularni oshirish maqsadida pul mablag'lari va boshqa kapitallarni turli iqtisodiy loyihalarga kiritish investitsiyalash deb ataladi. Investitsion qo'yilmalarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar investorlar hisoblanadi. Mablag'larni investitsiyalashning iqtisodiy motivi ularni kiritishdan daromad olish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, investitsiyalar qatoriga faqat keyinchalik kapital hajmini oshirish, foyda olish maqsadida kiritilgan qo'yilmalar kiradi. Iste'mol ko'yilmalari. masalan, maishiy texnika, shaxsiy foydalanish uchun avtomobil yoki boshqa tovarlar sotib olish iqtisodiy mazmuni bo'yicha investitsiyalar qatoriga kirmaydi. Jahon amaliyotida investitsiyalashning uchta asosiy shakli ajratib ko'rsatiladi:

- real (kapital hosil qiluvchi) investitsiyalar;
- portfelli investitsiyalar;
- nomoddiy aktivlarga investitsiyalar.

Investitsiyalar iqtisodiy adabiyotlarda odatda quyidagi asosiy belgilar bo'yicha tasniflanadi:

1. Investitsiyalashda ishtirok etish xarakteri bo'yicha:

a) to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar — investorning mablag'larni bevosita investitsiyalash obyektlariga kiritishi (investitsiyalashiing ushbu turini asosan tayyorgarlik ko'rgan, investitsiyalash obyekti hakida yetarlicha aniq axborotga ega va investitsiyalash mexanizmi bilan yaxshi tanish bo'lgan investorlar amalga oshiradi);

b) bilvosita investitsiyalar — boshqa shaxslar (investitsion yoki moliyaviy vositachilar) vositasida amalga oshirilgan investitsiyalash. Bu investitsiyalarni investitsiyalash obyektlarini tanlash va keyinchalik ularni boshqarish uchun yetarli malakaga ega bo'lmagan investorlar amalga oshiradi. Bu holatda ular investitsion yoki boshqa moliyaviy vositachilar chiqaradigan qimmatli qog'ozlarni (masalan, investitsion fond va investitsion kompaniyalarning investitsion ssrtifiqatlari) xarid qiladilar, vositachilar esa, shu tariqa to'plangan investitsion mablag'larni o'z xohishiga ko'ra joylashtiradilar — investitsiyalashning eng samarali obyektlarini tanlaydilar, ularni boshqarishda ishtirok etadilar, olingan daromadni esa o'z mijozlari o'rtasida taksimlaydilar.

2. Investitsiyalash davri bo'yicha:

a) qisqa muddatli investitsiyalar — kapitalni bir yildan ortik bo'lmagan muddatga kiritish (masalan, tez amalga oshiriladigan tijorat loyihalari, kiska muddatli depozit qo'yilmalar va h.k.);

b) uzoq muddatli investitsiyalar — kapitalni bir yildan ortiq bo'lgan muddatga kiritish (qoidaga ko'ra, yirik va uzoq muddatli investitsion loyihalarga).

Investitsion kompaniyalar va banklar amaliyotida uzoq muddatli investitsiyalar quyidagi tarzda detallashtiriladi: 2 yilgacha, 2 yildan 3 yilgacha, 3 yildan 5 yilgacha, 5 yildan ortiq.

3. Mulkchilik shakli bo'yicha:

a) xususiy investitsiyalar - fuqarolar tomonidan, shuningdek, nodavlat korxonalari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan mablag'lar kiritish;

b) davlat investitsiyalari - markaziy va mahalliy boshqaruv va hukumat organlari tomonidan budjet mablag'lari va byudjstdan tashkari fondlarning mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan qo'yilmalar;

v) chet el investitsiyalari - chet el fukarolari, yuridik shaxslari va davlatalari tomonidan amalga oshiriladigan qo'yilmalar;

g) qo'shma investitsiyalar - shu mamlakat shaxslari va chst el mamlakatlari tomonidan amalga oshiriladigan ko'yilmalar.

Yuqorida kayd etilgan fikrlarga xulosa qilib, "investitsiyalar"ga keng ma'noda quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Investitsiyalar bu davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning daromad olish va boshqa ijobiy samaradorlikka erishish maqsadida mamlakat ichkarisida va tashkarisida yangi korxonalar tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ko'chmas mulk, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa kimmatli' qog'ozlar xamda aktivlarni sotib olishga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'lari, mulkiy va intellektual boyliklardir".

Bozor iqtisodiyotiga sharoitida investitsiyalar va kapital ko'yilmalar tushunchalari o'rtasidan qator farqlar yuzaga keldi:

Birinchidan, investitsiyalar - kapital ko'yilmalariga qaraganda ancha keng tushuncha. Investitsiyalar real investitsiya qo'yilmalarini va portfel ko'yilmalarni o'z ichiga oladi. Mazkur tasniflashlarda esa, portfel investitsiyalari mutlakko hisobga olinmagan.

Ikkinchidan, bozor munosabatlari sharoitida kapital qo'yilmalarni, investitsiyalarni moliyalashtirish usullari va uslublaripi ko'llash sohalari ancha kengaydi. Bularning barchasi ushbu tasniflashlarda mavjud emasdir.

Hozirgi kunda investitsiyalarni chet el adabiyotlarida keltirilgan tarzda tasniflash va ularni mamlakat amaliyotida qo'llash uchun umumlashtirish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Birok, hozirgi zamonaviy sharoitda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, ularni batafsil tasavvur qilish va chuqur tahlildan o'tkazishda ushbu tasniflar yetarli emasligi ma'lum bo'lmokda.

Investitsiyalarning ichki va tashqi manbalari. Investitsiyalarga berilgan ta'riflar tahlilida investitsiyalarni ichki va tashqi investitsiyalarga ajratishning zarurligi asoslanadi. Fikrimizcha, bu investitsiyalar mohiyatining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Buning boisi shundaki, ichki va tashqi investitsiyalarni amalga oshirish jarayonlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Masalan, tashqi investitsiyalarni amalga oshirishda valyutalarni konvertirlash, investitsiyadan olingan daromadni repatriatsiya qilish muammolari vujudga kelib, mazkur muammolar investitsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.

Shuningdek, investitsiya mohiyatining boshqa namoyon bo'lish shakllari, shu jumladan, ijtimoiy samara olish maqsadida ko'llanilishi va iqtisodiy risklarga muntazam duch kelishi ularning ta'riflarida o'z aksini topmagan.

Investitsiyalar, ayniqsa, real (kapital hosil qiluvchi) investitsiyalar ichki (milliy) manbalar hisobiga ham, tashqi (xorijiy) manbalar hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Ikkala investitsiyalar manbasi ham kapitalni jalb etishni faollashtirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ishida muhim rol o'ynaydi.

Dastlab ichki investitsiya manbalarini ko'rib chiqamiz. Mamlakat miqyosida jamg'armalar umumiy darajasi aholi, tashkilotlar va davlat jamg'armalari darajasiga bog'liq bo'ladi. Xususan, aholi ma'lum miqdordagi mablag'larni kelajakda ishlatish uchun olib ko'yishi, kompaniyalar o'z faoliyati natijasida olingan foydaning bir qismini kayta investitsiyalashi, hukumat esa budjetga kelib tushayotgan mablag'larning xarajatlardai ortishi hisobiga mablag'lar jamg'arishi mumkin. Shu bilap bir paytda, jamg'armalar hajmi bevosita mamlakatdagi investitsiyalar hajmiga ta'sir etadi, chunki mablag'larning bir qismi iste'molga, qolgan qismi esa — investitsiyalarga yo'naltiriladi.

Bunday kelib chiqib, quyidagi asosiy ichki investitsiyalar manbalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

a) foyda. Korxona va tashkilotlar ko'pincha foydadan investitsiyalar manbasi sifatida foydalanadilar. Olingan foydaning bir qismini ular biznssni rivojlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirishi va yangi texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltiradilar. Ko'rinib turibdiki, bo' maqsadga pul ajratmaydigan korxona va tashkilotlar yakuniy hisobda raqobatbardosh bo'lmay qoladilar.

Moliyaviy resurslarning, jumladan, biznesni rivojlantirish uchun yetishmasligini ba'zida korxonalar o'z mahsulotlari narxini oshirishi xisobiga koplashga haraqat qiladilar. Birok shuni ham xisobga olish kerakki, mahsulot narxini oshirish unga bo'lgan talabnig pasayishiga olib keladi, bu esa mahsulotni sotishda muammolarni vujudga keltiradi vaokibatda ishlab chiqarishning pasayishiga sabab bo'ladi.

b) bank krediti. Bank kreditlari ko'plab rivojlangan mamlakatlarda asosiy investitsiya manbalaridan sanaladi. Bunda uzok muddatli kreditlash muhim rol o'ynaydi, chunki bu holatda qarz oluvchining yelkasiga tushadigan oirlik kichikrok bo'ladi va korxonada o'z biznesini "gullatish"ga imkon bo'ladi. lekin shunga qaramay, investitsiyalar manbasi sifatida bank kreditining roli bank tizimining rivojlanishi va mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikka boglik bo'ladi. Mamlakatdagi beqarorlik banklarning uzok muddatli kreditlar berish va investitsion loyixalarni moliyalashtirishni istamasligiga olib kelishi xech kanday shubha uyg'otmaydi.

Umuman, bank kreditlari ishlab chiqarishning asta-sekinlik bilan o'sishi va buning natijasi sifatida mamlakat iqtisodiyotining ko'tarilishiga xizmat qiladi.

v) qimmatli qog'ozlar emissiyasi. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi Uzbekistonda ham asta-sekinlik bilan investitsiyalar manbasiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga rivojlangan mamlakatlarda aynan kimmatli qog'ozlar chiqarish investitsion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Mablag' olish maqsadida korxonalar aksiyalarni ham, obligatsiyalarpi xam chiqarishi mumkin. Bunda qimmatli qog'ozlar xaridori bo'lib odatda bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan istalgan yuridik va jismoniy shaxslar nmoyon bo'lishi mumkin. Aynan ular ushbu holatda o'z mablag'larini korxonalarning kimmatli qog'ozlariga almashtirgan holda investor vazifasini bajaradilar.

g) budjetdan moliyalashtirish. Ayni paytda mamlakatimizda davlat budjetining taqchilligi kuzatilmoqda. Shu tufayli, investitsion loyihalarning bir qismini neytrallashtirish mapbalari xisobiga amalga oshirish mumkin. Bunda mamlakat ahamiyatiga molik loyihalarni mablag'lar qaytarib berilmaydigan tarzda budjetdan moliyalashtirish xam, potensial foyda keltiradigan loyihalarni kreditlash ham qo'llanishi mumkin.

d) amortizatsiya ajratmalari. Amortizatsiya ajratmalari tovarlar ishlab chiqarish jarayonida eskiradigan ishlab chiqarish vositalarini kayta tiklashga yo'naltiriladi. Birok hozirgi paytda Uzbekistonda amortizatsiya ajratmalari inflyatsiya tufayli qadrsizlanmokda, bu esa ularning moliyalashtirish manbasi sifatidagi rolini kiskartiradi.

1.3. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanishning jahon amaliyoti tajribalari

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Mustaqillik yillarida kichik biznes subyektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda.

Bizga ma'lumki, jaxon amaliyotida xususiy tadbirkorlikni kreditlashning boy tajribalari mavjud. Biz mazkur bitiruv malakaviy ishining ushbu savolida xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash va investitsiyalashning Buyuk Britaniya, Italiya, Amerika, Xitoy tajribalarini taxlil kilib chiqamiz.

1992-2007 yillarda Buyuk Britaniyada Kichik biznes korxonalari xisobiga 3,5mln. ishchi urni yaratilgan, bu esa kata korporatsiyalarda ish urni qisqartirishlarni kompensatsiya kilgan. Agar 1981 yilda 2,2 mln. kichik korxonalar faoliyat yuritgan bulsa, 2007 yilda esa ularning soni 5,7mln.ga yetdi. 20 ishchidan kam xodimlari bo'lgan firmalar umumiy kichik korxonalar sonining 96% ni tashkil etadi. 78% ingliz korxonalarning yillik oboroti 100000 funt sterlingdan oshmaydi. Kichik biznes xisobiga tovar oborotining 21% ni tashkil etadi, 9 mln. kishini ish Bilan ta'minlaydi, bu esa umumiy ish kuchining 36% ni tashkil etadi. Bu soxaning yalpi milliy maxsulotdagi xissasi 25% ni tashkil etadi, bu esa 150 mlrd. funt sterling deganidir.

Kulay sharoitlar natijasida mamlakatlar xaftasiga 900 yangi kichik firma yaratildi. Ularning 81% uz xayotiyligini saklab koladi, Yangi ishchi urinlarini yaratish darajasi 17%.

1.3.1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subektlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (foizda)

Davlatlar	Kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	Kichik va o'rta biznesning umumiy bandlikdagi ulushi	Jami korxonalar tarkibida kichik va o'rta biznes korxonalari ulushi
AQSH	52	50,1	97,6
Kanada	43	47	99,8
Yaponiya	51,6	69,5	99,2
Germaniya	57	69,3	99,3
Fransiya	49,8	56,6	97,6
Italiya	55	71	99,2
Buyuk Britaniya	52	55,5	99,1

Manba: Internet ma'lumotlari

Angliyada kichik biznesni moliyalashtiruvchi maxsus firmalar bulib, ularning xissasi Yevropada tavakkal kapitaliga sarflangan mablag'ning 40% ga tugri keladi. Angliya banki va kliring banklari tomonidan nazorat etiladigan «Sanoat va savdo korxonalarini moliyalashtirish (IFKF)» korporatsiyasi 80-yillar davomida 3900 kichik firmalarga 500 mln. funt sterling sarflagan. Bu korporatsiyada kichik korxonalarning 20% ga kredit beradi.

«Barkleyz bank» biznesni kreditlash uchun eng kizik programma ishlab chikkan. Mazkur programma buyicha kredit uchun foiz stavkasi xisoblanmaydi, bank daromadi esa firmaning yillik oborotidan 15-17% olish xisobiga shakllanadi., kredit mikdori esa 5-100ming funt sterlinggacha 5 yil muddatda beriladi. Banklarning bunday faolligi ular uchun kup afzalliklar tugdiradi. Shunday kilib, 4 yirik bank filiallari bilan kichik biznesning 90% ni nazorat kiladi.

«Kreditlarni kafolatlash» dasturiga asosan, 3 yil davomida ilgor ishbilarmonlar tomonidan sugo'rta premiyalari tulanadi. 90 yillardan boshlab Britaniya Sanoat Konfederatsiyasi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dastur ishlab chikib, yuridik va jismoniy shaxslardan maxsus tulovlar undirish kuzda tutilgan.

Kichik biznes korxonalarini Italiyada kreditlash orkali rivojlantirish. Italiya – kichik biznesning tanilgan ulkasidir. 800 ming sanoat korxonalaridan 99% Kichik biznes korxonalaridir. Umumiy mahsulotning 90%, xodimlari 50 kishidan kam bo'lgan korxonalarda ishlab chikariladi. Ishchilarning yarmi shunday korxonalarda ishlaydi.

Italiyada xar xil assotsiativ tashkilotlar keng tarkalgan bulib, ular Kichik biznes korxonalarining manfaatlarini davlat muassasalari, sudlari, banklarida ximoya kiladi, texnologiya nou-xau sotib olishda kumaklashadi, mahsulot sotishni nazorat kiladi. Masalan, Parmaning Kichik biznes korxonalari Assotsiatsiyasi 200 ga yakin korxonalarni birlashtiradi va uz a'zolariga moliyaviy xizmatlar, personalni ukitish, xamkorlar topish, marketing izlanishlari va ishlab chikarishda xavfsizlik va ekologiya soxalari yuzasidan yordam beradi.

1991 yil oktabridan boshlab kichik korxonalarni modernizatsiya va rivojlantirish to'g'risida qonun amal kiladi, unga kura keyingi 3 yil davomida ilmiy tadqiqot, texnik modernizatsiya, kadrlarni tayyorlash uchun 1570 mlrd. lira mablag' ajratilgan.

Kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan quvvatlash 3 vazir va 5 ta vazirlik kompetensiyasiga kiradi. Bundan tashqari, Kichik biznes korxonalarini qo'llab – quvvatlashda 9 ta davlat va nodavlat tashkilotlari xamda 10 ta fond amal kiladi.

Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlashda maqsadli subsidiyalash va imtiyozli kreditlash asosiy urinni egallaydi. Italiyada xar yili shu ikki yunalish uchun 600 mlrd. lira sarflanadi.

Kup xollarda maqsadli subsidiyalash imtiyozli solik urnida ishlatiladi, shuningdek, kichik korxonalar birlashmasi bo'lgan konsorsium va kooperativlarni maqsadli moliyalashtirish uchun xam ishlatiladi. Subsidiya mikdori bir konsorsium uchun bir yilda 300 mln. liradan oshmaydi yoki 3 yilda 800 mln. lirani tashkil etadi. Maxsus moliyalash tadbirlari 5 ta kichik korxonalar tashkil topgan 20 mln. liradan oshik kapitali bo'lgan konsorsiumlarga muljallangan.

1.3.2-jadval

Kichik biznesning har xil davlatlardagi holati va ko'rsatkichlari

Davlatlar	KB soni (ming)	1000 aholi uchun QB soni	KB da band bo'lgan aholi (mln.)	Jami banda bo'lgan aholi sonida KBning ulushi (%)	KBning YAIM dagi ulushi
Buyuk Britaniya	2630	46	13,6	49	50-53
Germaniya	2290	37	18,5	46	50-52
Fransiya	1980	35	15,2	54	55-62
YEI davlatlari	15770	45	68	72	63-67
AQSH	19330	74,2	70,2	54	50-52
Yaponiya	6450	49,6	39,5	78	52-55
Rossiya	844	5,65	8,3	13	10-11
O'zbekiston	310	10,3	6,7	65	55,8

Manba: Internet ma'lumotlari

Imtiyozli kreditlash kichik korxonalarning 40% xarajatlarini qoplaydi. Yangi firma yaratish uchun kreditlar 15 yilga beriladi. Modernizatsiya uchun 10 yilga beriladi. Foiz stavkasi 36-60% bo'ladi. Davlat institutlari faqat kichik korxonalarda emas, balki kichik korxonalarning birlashmalariga ham imtiyozli foiz stavkali kreditlar beradi. Masalan, konsorsiumlar 60%lik kreditlar oladi.

Venchur tadbirkorligi uchun yopiq investitsion fondlar tashkil etilgan. Bu fondlar birjada ruyxatga olinmagan korxonalar aksiyasini oladi. Unda fond mablag'lari davlat obligatsiyalari va boshqa yopiq fondlar aksiyalariga sarflanishi mumkin emas. Fondlarning asosiy daromad manbai u tashkil etilgan firma aksiyalarini sotish orkali tarkib topadi. Ilmiy tadbirkot faoliyati va konstruktorlik ishlanmalari va ilmiy biznesni qo'llab – quvvatlash uchun investitsion texnologik fond va Amaliy tadqiqotlar fondi ish yuritadi. Davlat tomonidan har yili maxsus fondlaga moliyaviy yordam ko'rsatiladi.

AQShning Sietl shaxrida kichik biznes korxonalarini kreditlash orqali rivojlantirish.

Sietl xokimiyati tomonidan biznesni qullab – quvvatlash va kreditlash markazi ochilgan. Bu notijorat tashkilotlari kichik biznesni qullab – quvvatlashda 2 ta bir-biriga o'xshash loyihani tuzgan. Ular Sietl banki tomonidan qullab – quvvatlanib bitta dasturga birlashtirilgan. Bu dasturning asosiy maqsadi kichik korxonalarni yaratish va rivojlantirish bosqichida kreditlash orqali qullab – quvvatlovchi ijtimoiy va xususiy tashkilotlarni birlashtirish va koordinatsiya qilishdir.

Bundan ko'rinadiki, yuqorida keltirilgan misollarga asosan kichik biznes korxonalarini rivojlangan mamlakatlardagi taraqqiyotni qullab – quvvatlashning maqsad va vazifalari turli darajalarda bir xil bo'lsa-da, ularni amalga oshirish uslublari har xildir.

2- Bob. Chiroqchi tumanida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishining hozirgi holati va kelajak imkoniyatlari.

2.1. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va bozor islohotlarini amalga oshirish natijalari

Chiroqchi tumani 1926 yilda tashkil topgan bo'lib, uning umumiy yer maydoni 2,8 ming kv.km.dirni tashkil etadi. Tumanning aholi soni 360,3 ming kishini tashkil etadi, shundan shahar aholisi 87,2 ming kishini qolgan esa 273,1 ming kishi qishloq aholisidir. Tumanga bo'yso'nuvchi shag'ar bu Chiroqchi shahri bo'lib, shahar tipidagi posyolkalar 8 tani, mahalla fuqarolar yig'ini 45 tani, qishloq fuqarolar yig'ini esa 25 tani tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Mahalliy Davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, viloyat hokimining 2007-yil 11- apreldagi "Qashqadaryo viloyat tumanlari hokimligining ish tartibi (Reglamenti) to'g'risida"gi X-95/4 sonli qarori bilan tasdiqlangan Reglamenti hamda mazkur vazifalar taqsimoti asosida faoliyat ko'rsatadi hamda tumanning iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish majmuiga oid ishlarni amalga oshiradi, tizimdagi tashkilotlar, idoralar va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

2015 yil 1 yanvar xolatida Chiroqchi tumani aholisi 360.3 ming kishini tashkil etib, shundan mehnatga layokatli yoshdagi axoli soni 188.6 ming kishini, iqtisodiy faol aholi 158.9 ming nafarni, iqtisodiyotda band aholi soni 108.9 ming nafarni tashkil etdi.

Chiroqchi tumanida 2014 yil davomida yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash Dasturiga asosan amalda 8766 ta yangi ish o'rinlari tashkil etildi . Jumladan:

- Yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, ishlab turgan korxonalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish hisobiga 915 ta;
- Kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil etish xisobiga 3970 ta, shundan xizmat ko'rsatish va servis soxasida 1760 ta;
- Ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish hisobiga 1103 ta;
- Kasanachilikning barcha shakllarini tashkil etish 2595 ta,

Chiroqchi tumanida tug'ilish darajasi (har 1000 kishiga nisbatan) 34 foizni, o'lim darajasi 3.6 foiz bo'lib, tabiiy o'sish 30.32 foizni tashkil etdi.

Shaharda 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 72 tani, 1 yoshga to'lmagan bolalar o'limi 48 tani tashkil etdi.

Bir kishiga to'g'ri keladigan markazlashgan ichimlik suv ta'minoti 66,9 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 65,9 foizni tashkil etdi.

Quyidagi jadvalda tumanning demografik holati va mehnat resurslarining o'zgarishi keltirilgan:

2.1.1-jadval

Chiroqchi tumanining demografik holati va mehnat resurslari (ming kishi)

Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilda 2011 yilga nisb.o'zg.%
Doimiy aholi soni	333.2	340.9	349.9	360.3	108.1
Shundan:					
-erkaklar	167.7	171.9	176.1	180.9	107.8
- ayollar	165.5	169.0	173.8	179.4	108.3
Shahar aholisi	81.0	82.5	84.4	87.2	107.6
Shundan:					
-erkaklar	40.9	41.8	42.7	43.8	107.1
- ayollar	40.3	40.7	41.7	43.4	107.6
Qishloq aholisi	252.2	258.4	265.5	273.1	108.3

Shundan:					
-erkaklar	126.8	130.1	133.4	137.0	108.0
- ayollar	125.2	128.3	132.1	136.1	108.7
Mehnatga layoqatli aholi	167.6	173.9	183.3	188.6	112.5
Maktabgacha yoshdagilar soni (6 yoshgacha bo'lgan)	53.3	54.5	55.1	55.4	104.0
Iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni:	93.8	95.6	104.9	108.9	116.1

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tuman aholisi 2014 yilda 2011 yilga nisbatan 108,1 foizga yoki 27100 kishiga ko'paygan. Shundan shahar aholisi 107,6 foizga, qishloq aholisi esa 112,5 foizga ko'paygan. Tuman aholisining 24,2 foizi shaharda istiqomad qiladi qolgan 75,8 foizi esa qishloq joylarida yashaydi. Chiroqchi tumanida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish borasida 2014 yil davomida olib borilgan ishlar hukumatimiz tomonidan belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosiga yo'naltirildi.

2.1.2-jadval

Tumanning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014yilda 2011yilga nisb.o'zg. (+;-)
Mahalliy budjet daromadlari rejasi	mln.so'm	16559.4	19154.3	23500.8	30768.9	14209.5
xaqiqatda	mln.so'm	16676.3	19307.3	23634.3	30833.4	30833.4
rejaning bajarilishi	%	100.7	100.8	95.6	100.2	-0.5
Xarajatlari rejasi	mln.so'm	83404.0	106331.2	121607.4	147207.6	63803.6
xaqiqatda	mln.so'm	83418.5	106472.3	121299.9	147311.6	63893.3
rejaning bajarilishi	%	100.0	100.1	99.7	100.1	+0.1
Moliyaviy natijalar						
Debitor qarzlari (ichki qarzlarsiz)	mln.so'm	4966.3	8547.7	7165.0	1539.6	-3426.7
jumladan: muddati o'tgan	mln.so'm	4.6	29.0	x	x	-4.6
Kreditor qarzlari (ichki qarzlarsiz)	mln.so'm	15636.0	6869.9	18977.6	6286.8	-9349.2
Aholi soni	ming kishi	333.2	340.7	349.9	360.3	27.1
Mehnat resurslari soni	ming kishi	167.9	173.9	183.3	189.1	21.2
Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlovchilarning dekabr oyi o'rtacha ish xaqi	so'm	503211	563612	815949	960300	457089
Aholi jon boshiga mahalliy budjet daro-madlarining to'g'ri kelishi	so'm	50049	56670	67546	85577	35528

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Tumanning moliyaviy natijalarini tahlil qilar ekanmiz, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tumanning debitorlik qarzlari 2014 yilda 2011 yilga nisbatan 3426.7 mln.so'mga kamaygan. Kreditorlik qarzlari esa tahlil qilinayotgan yillarda 9349.2 mln.so'mga kamaygan. Demak, tahlil qilinayotgan davrlarda tumandagi korxonalar faoliyatida kreditorlik va debitorlik qarzlarning kamayishi kuzatilganligini ko'rish mumkin.

Aholi jon boshiga 2014 yilda 85577 so'm mahalliy budget daromadlari to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 35528 so'mga oshganligini ko'rish mumkin. Demak, tuman iqtisodiyot sohasida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojini qondirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari faoliyatini jonlantirish va yang muhimi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportidan kelayotgan valyuta mablag'larini ko'paytirish tuman aholisining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxda 113.9 foizga, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish 103.6 foizga, chakana savdo aylanmasi 118,5 foizga, jami xizmatlar 125.6 foizga, shundan pullik xizmat ko'rsatish 113.8 foizga, maishiy xizmat esa 114.2 foizga o'sishga erishildi.

Tashqi savdo aylanmasi 168.2 mln AQSH dollarni tashkil etib, shundan eksport 57,8 mln AQSH dollarni, import xajmi 110,4 mln AQSH dollarni tashkil etdi.

2014 yil davomida 773.29 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113.9 foizni tashkil etadi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2660.2 ming so'mni tashkil etdi.

2.1.3-jadval

Tumanda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014yilda 2011yilga nisb.o'zg. (+;-)
Yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (amaldagi narxda)	mln. so'm	34837.5	40543.6	44387.8	77328.8	42491.3
O'tgan yilga nisbatan	%	117.2	113.5	109.9	113.9	-3,3
Viloyatdagi ulushi	%	0.8	0.8	0.8	1.2	0,4
Nodavlat sektorida mahsulot ishlab chiqarish	mln. so'm	34837.5	40543.6	44387.8	77328.8	42491.3
Umumiy hajmga nisbatan	%	100.0	100.0	100.0	100.0	-
Iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi (sotuv narxlarida)	mln. so'm	16626.8	19724.4	26502.7	48122.6	31495.8
O'tgan yilga nisbatan	%	119.0	112.0	114.9	109.2	-9.8
Viloyatdagi ulushi	%	3.7	3.8	4.2	4.3	0.6
Nodavlat sektorida iste'mol mollari ishlab chiqarish (sotuv narxlarida)	mln. so'm	16626.8	19724.4	26502.7	48122.6	31495.8
Mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish						
Paxta tolasi	ming tn.	7.5	7.2	7.9	6.9	-0.6
Konservalar	ming sh.b.	333.1	333.6	333.7	334	0.9

non	tonna	829.0	836.0	838.0	840.0	11.0
makaron	tonna	25.0	32.0	34.0	35.0	10.0
momiq	tonna	413.0	422.0	430.0	433.0	20.0
g'isht	mln sh.d.	7.9	8.1	8.2	8.5	0.6

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2014 yilda 2011 yilga nisbatan 42491.3 mln.so'mga oshgan. 2014 yilda 2013 yilga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 3.3 foizga kamaygan. Tumanning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyatdagi ulushi 2014 yilda 1.2 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 0.4 foizga oshgan. Mahsulot turlari bo'yicha tahlil qilganimizda paxta tolasini ishlab chiqarish 2011 yilga nisbatan 2014 yilda 600 tonnaga kamaganligini ko'rish mumkin. Biroq konservalar, non mahsulotlari, makaron mahsulotlari va boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi oshganligini jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rish mumkin.

2013-2015 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Dasturiga muvofiq 126 ta (23 ta sanoat va 103 ta xizmat ko'rsatish) loyihalarni amalga oshirish hisobiga 751 ta yangi ish o'rinlarini tashkil etish lozim buladi.

Sanoat salohiyatini rivojlantirish Dasturiga ko'ra (PQ-2017 sonli qaror) qiymati 26,9 mln dollarlik 21 ta loyihalarni ishga tushirish orqali 585 ta yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan.

Bundan tashkari 36 ta sanoat sohasida, 21 ta xizmat kursatish sohasida xamda 12 kishlok xujjaligi sohasida buyicha kushimcha loyixalar ishlab chikarilmokda.

Chiroqchi tumanida 62 ta MFY larida 46,3 mingta xonadonmavjud bulib 46 ta MFY larida 13,3 mingta xonodonlarda tomorqasi mavjud, ushbu xonodonlarda jami 89,9 gektar ekin maydoni mavjud bo'lib, ushbu xonadonlarda 54,7 ming oila istikomat kiladi.

Mazkur xonadonlarga bevosita tashrif buyurish orqali ulardagi ijtimoiy-iktisodiy muhit bilan tanishish, yer maydoniga ega bo'lgan xonadonlarda mevali va manzarali daraxtlar xamda qishloq xujalik maxsulotlari ekish, chorva mollari va parrandalarni yetishtirishni tashkil etish tadbirlari olib borilmoqda.

2015 yil 27 yanvar holatida tumanr aholi tomorqalarida sabzavot, poliz va boshqa ekinlarni ekish yuzasidan o'tkazilgan monitoring natijasida 48 nafar fuqaroning sabzavot yetishtirish uchun 9,4 mln.so'm, poliz uchun 6,7 mln.so'm va kartoshka yetishtirish uchun 15,1 mln.so'm xamida jami 85,1 mln.so'mlik bank kredit mablag'i zarurligi aniklandi.

Shuningdek, aholi tomorqalarida uy hayvonlari (parranda, kuy, echki, kuyon va qoramol) buyicha olib borilgan monitoring natijasida 395 nafar fuqaroning qoramol uchun 1435 mln.so'm, qo'y va echki, kuyon uchun 711 mln.so'm va parranda uchun 862,4 mln.so'm bank kreditlariga va jami bo'lib 3008,4 mln.so'mlik bank kreditlariga ehtiyoji borligi aniqlandi.

Aholi tomorqalaridan samarali foydalanish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari davom etmoqda.

2.1.4-jadval

Tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014yilda 2011yilga nish.o'zg. (%)
Qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti	mln.so'm	167194.2	222738.8	280161.3	341107.0	204.0
O'tgan yilga nisbatan	%	97.1	110.3	107.6	110.1	1.04 punktga oshgan
Viloyatdagi ulushi	%	10.5	10.5	10.7	11.1	1.06 punktga oshgan
shu jumladan:						

Dehqonchilik mahsulotlari	<i>mln.so'm</i>	59086.3	92573.8	123132.9	141859.4	240.1
Chorvachilik mahsulotlari	<i>mln.so'm</i>	108107.9	130165.0	157028.4	199247.6	184.3
Dehqonchilik mahsulotlari						
Kartoshka	tonna	14448	16394	16604	16604	115.0
Sabzavot	tonna	36992	41291	42103	45498	123.0
Poliz	tonna	12665	14158	14575	16843	133.0
Meva	tonna	3492	5896	7515	7986	228.7
Uzum	tonna	5410	5970	6908	8230	152.1
Chorvachilik mahsulotlari						
Go'sht	tonna	25115	25915	27791	30663	122.1
Sut	tonna	97075	100586	106651	116120	119.6
Tuxum	Ming dona	29466	34415	36978	42042	142.7
Jun	tonna	629	680	701	764	121.5
Qorakulteri	dona	13403	15345	17006	17657	131.7

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

2.1.4-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish 2014 yilda 2011 yilga nisbatan 204 foizga oshgan. Tumanda jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining viloyatdagi ulushi 11.1 foizga teng bo'lib, bu ko'rsatkich 2011 yilga qaraganda 1.06 punktga oshganligini ko'rish mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan dehqonchilik mahsulotlari 240.1 foizga, chorvachilik mahsulotlari esa 184.3 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 41,6 foizni chorvachilik mahsulotlarining ulushi esa 58.4 foizni tashkil etmoqda. Demak, tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda chorvachilik tarmog'ining hissassi ko'p ekanligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklari mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, qishloq aholisini qo'shimcha daromad bilan ta'minlash, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarar ekan, ularning rivojlanishi uchun mavjud tashqiliy, huquqiy sharoitlarini yanada yaxshilash, davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish darajasi va samaradorligi tahlili.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish kichik va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport qilish, mavjud zahiralardan tejamkorlik bilan foydalanish asosida sifatli va arzon xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarib, xalq turmush farovonligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bugungi kunda yirik makroiqtisodiy ahamiyatga ega va uning holati talab va taklif nisbatida aholi moddiy iste'moli darajasida, daromad va harajatlarida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham bu sohada uning salohiyatidan foydalanish jarayonlarini o'rganish dolzarb muammolardan biri bo'lib bormoqda. Kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yaqin

va uzoq kelajakdagi rivojlanishi uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mahsulotni ishlab chiqarishdan iste'molchigacha yetkazishda zarur bo'ladigan barcha jarayonlarda uning salohiyati va imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

Chiroqchi tumanida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar sonini yillar bo'yicha o'zgarishini ko'rib chiqamiz va 2.2.1-jadvalda aks ettiramiz.

2.2.1-jadval

Tumanda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 2015 yil 1 yanvar holati bo'yicha

(birlik)

	Jami xo'jalik yurituvchi subyektlar	Shu jumladan				
		Sanoat	Qishl. xo'jali- gi	Quri- lish	Savdo va umum. ovqatl.	Boshqa tarmoqlar
Tuman buyicha:	1724	109	383	128	660	444
shu jumladan						
Kichik biznes:	1364	108	364	126	659	107
Kichik biznesning jami xo'jalik yurituvchi subyektlardagi ulushi, %da	79.1	99.1	95.0	98.4	99.8	24.1

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

2015 yil 1 yanvar holati bo'yicha tumanda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar (dehqon va fermer xo'jaliklarsiz)soni sohalar bo'yicha taqsimlaganda sanoatda 109tani, qishloq xo'jaligida 383tani, qurilishda 128 tani, savdo va umumiy ovqatlanishda 659 tani va boshqa sohalarida esa 444 tani tashkil etmoqda. Bundan jami xo'jalik yurituvchi subyektlarda kichik biznesning ulushi 79.1 foizni, sanoatda 99.1 foizni, qishloq xo'jaligida 95.0 foizni, qurilishda 98.4 foizni, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 99.8 foizni va boshqa sohalarida esa 24.1 foizni tashkil etmoqda.

Endi tumanda xo'jalik yurituvchi subyektlarning yillar bo'yicha o'zgarishini tahlili qilar ekanmiz, 2011 yilda ularning umumiy soni 1997 tani, 2012 yilda 2067 tani, 2013 yilda esa 2004 tani, 2014 yilda 1724 tani tashkil qildi. Jami xo'jalik yurituvchi subyektlar tarkibida kichik biznesning soni 1364 tani, kichik korxonalarining soni 79 tani, mikrofirmalar soni esa 1285 tani va boshqa sohalarining soni esa 360 tani tashkil etmoqda.

2.2.2-jadval

Tumanda xo'jalik yurituvchi subyektlar tarkibining o'zgarishi

(birlik)

Ko'rsatkichlar		2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014yilda 2011yilga nisb.o'zg. (%)
Umumiy soni:		1997	2067	2004	1724	86.3
shundan:	Kichik biznes	1638	1702	1644	1364	83.3
a)	Kichik korxonalar	55	126	102	79	143.6
b)	Mikrofirmalar	1583	1576	1542	1285	81.2
	Boshqalar	359	365	360	360	100.3

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar soni 2011 yilga nisbatan 2014 yilda 13.7 foizga yoki 273 taga kamaygan. Kichik biznes subyektlarining soni ham 16.7 foizga yoki 274 taga kamaygan. Kichik biznes tarkibida kichik korxonalarining soni esa 43.6 foizga yoki 24 taga ko'paygan, mikrofirmalar soni esa 18.8 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Tumanda kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatmaslik sabablari avvalambor subyektlarning aylanma mablag'lariga ega emasligi, tugatilish arafasida bo'lganligi, ta'sischisi chet elga ishga ketib qolganligi, nizom jamg'armasini shakllantira olmaganligi va boshqa har-xil sabablar bo'lmoqda.

Sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

- Bugungi kunda tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muqobil manbasi sifatida bankdan tashqari kredit tashkilotlari (kredit uyushmalari, mikrocredit tashkilotlari, lizing kompaniyalari va boshqalar) tizimini rivojlantirish lozim;
- Tadbirkorlarga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma tashkilotlarini tashkil etish va moddiy texnik bazasini yangilash maqsadlariga imtiyozli kreditlar berishni joriy etish;
- Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatadigan infratuzilmalar mutaxassisleri uchun doimiy malaka oshirish tizimini va ushbu markazlarga malakali kadrlarni jalb qilish mexanizmini yaratish;
- Tadbirkorlarga zarur texnologiyalarni yetkazib berishda lizing xizmatini yo'lga qo'yish kerak deb hisoblaymiz;
- Tijorat banklari tomonidan ijro intizomining buzilishi natijasida mijozlar va boshqa tadbirkorlar ushbu faoliyatdan zarar ko'rishi mumkin bo'lgan holatda banklar javobgarligini oshirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ularni iqtisodiy faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Buning uchun ularga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikrocreditlar berish ko'lamini kengaytirishga oid amaliy tadbirlarni davom ettirish zarur.

Viloyat iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 14,8 foizi, qurilish ishlarining 73,9 foizi kichik biznes korxonalari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik biznes subyektlari yuk aylanmasi viloyat avtomobil transporti umumiy yuk aylanmasining 72,5 foizini, umumiy yo'lovchi aylanmasining 81,6 foizini tashkil etdi.

Savdo aylanmasi umumiy hajmining 36,0 foizi yoki 1207525,8 mln. so'mi (118,8 foiz) va aholiga pullik xizmat ko'rsatish umumiy hajmining 55,3 foizi yoki 555183,9 mln. so'mi (121,8 foiz) kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes subyektlari tashqi savdo aylanmasi viloyat tashqi savdo aylanmasi hajmining 43,0 foizini tashkil qildi. 2014 yilda kichik biznes subyektlari tomonidan 316203,8 ming AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 22,7 foizi), miqdorida mahsulot eksport qilindi. Import 246240,7 ming AQSH dollari (umumiy importning 57,9 foizi)ni tashkil qildi.

2.2.3-jadval

Viloyat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kichik biznesning ulushi

(foizda)

Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilda 2011 yilga nisb o'zg. (+;-)
----------------	-------------	-------------	-------------	-------------	---

Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznesning ulushi	56,2	52,4	51,4	52,5	-3,7
Iqtisodiyotda kichik biznesning sohalar bo'yicha salmog'i					
Sanoat	24,8	9,5	9,0	10,1	-14,7
Qishloq xo'jaligi	99,3	99,4	99,5	99,5	0,2
Investitsiya	26,2	19,8	15,0	14,8	-11,4
Qurilish	65,8	78,0	69,4	73,9	8,1
Savdo	44,3	39,8	35,0	36,0	-8,3
Pullik xizmat	77,9	76,1	61,1	55,3	-22,6
Tashilgan yuk	63,0	67,1	76,6	72,5	9,5
Tashilgan yuk aylanmasi	48,1	82,1	85,7	87,2	39,1
Yulovchi tashish	85,7	80,2	79,4	81,6	-4,7
Yulovchi tashish aylanmasi	82,1	82,4	83,5	87	4,9
Tashqi savdo aylanmasi	13,2	12,6	27,0	43,0	29,8
Eksport	9,0	12,2	18,1	22,7	13,7
Import	28,4	14,2	34,5	57,9	29,5
Kichik biznesda band bo'lgan aholi	74,9	75,1	77,1	77,8	2,9
Kichik biznesga ajratilgan bank kreditlari, mln.so'm	145570,0	216947,1	286480,1	372978,5	227408,5
Ro'yxatga olingan kichik biznes korxonalari (birlik)	18986	20767	20529	20430	1444
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalari (birlik)	14503	16656	16686	16087	1584
Yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari (birlik)	2626	3202	1438	1652	-974
Tugatilgan kichik biznes korxonalari (birlik)	706	1428	1728	1832	1126

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotida kichik biznesning ulushi 52.5 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 3.7 foizga kamaygan. Viloyatda yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari soni 2014 yilda 1652 tani tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 974 taga kamaygan. Faoliyat yurita olmagan kichik biznes korxonalari tugatilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2014 yilda 1832 tani tashkil etmoqda.

Endi tuman aholisiga pullik xizmat ko'rsatish ma'lumotlarini tahlil qilib chiqamiz va 2.2.4-jadvalda aks ettiramiz.

2.2.4-jadval

Chiroqchi tumani aholisiga pullik xizmatlar ko'rsatish to'g'risida ma'lumot

(mln.so'm)

	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
--	----------	----------	----------	----------

Ko'rsatkichlar	Pullik xizmat	sh.j. Maishiy xizmat	Pullik xizmat	sh.j. Maishiy xizmat	Pullik xizmat	sh.j. Maishiy xizmat	Pullik xizmat	sh.j. Maishiy xizmat
Tuman buyicha: (amaldagi narxlarda)	25554	5208	32890	4205	69987	8102	88414	10159
Davlat mulkchiligi	645	3	503	3	620	3	1012	4
Aholiga pullik xizmat ko'rsatishda davlat mulkining ulushi, %	2.5	0.06	1.5	0.07	0.9	0.04	1.14	0.04
Nodavlat mulkchiligi	24908	5204	32387	4202	69367	8099	87402	10155
Aholiga pullik xizmat ko'rsatishda nodavlat mulkining ulushi, %	97.5	99.94	98.5	99.3	99.1	99.96	98.86	99.96
Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan pullik va maishiy xizmat (so'm)	77553	15805	97540	12470	202566	23450	248984	28609

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishda nodavlat mulkchiligining ulushi yuqoridir, ya'ni xususiy mulkchilikka asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati tumanda ko'payib bormoqda. Tuman bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pullik xizmatlar 2014 yilda 248984 mln. so'mni va maishiy xizmatlar ko'rsatish esa 28609 mln.so'mni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichlarni 2011 yil bilan taqqoslaydigan bo'lsak, pullik xizmatlar ko'rsatish 321.0 foizga, maishiy xizmat ko'rsatish esa 181.0 foizga oshib borgan. Demak, tumanda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi yildan-yilga tez rivojlanib, aholini turmush tarzini yaxshilashga xizmat ko'rsatayotganligidan dalolat beradi.

2014 yilda Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida 2 ta loyiha bo'yicha 5 ta obyektida, shundan:

Osiyo taraqqiyoti banki ishtirokida "Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash" loyihasi doirasida 2 ta yildan-yilga o'tuvchi obyektida 91,7 km uzunlikda 5161,4 mln.so'mlik rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib amalda 31 dekabrgacha 91,7 km uzunlikda 5161,4 mln.so'mlik yoki yillik rejaning 100 foizi miqdorida ishlar amalga oshirildi.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida "Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash 2-bosqich" 3-ta loyihasi bo'yicha 1993,3 mln.so'mlik ishlar bajarilishi rejalashtirilgan. 2014 yil 31 dekabrgacha 2048,3 mln.so'mlik yoki yillik rejaga nisbatan 103 foiz ishlar amalga oshirilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni kiritishda xususiy kapital uchun jozibadorligi yuqori bo'lgan yo'nalishlardan biri bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, sotish sohalari subyektlarini rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar kiritish - bank orqali kreditlash tizimi, jamg'armalar o'sishi sur'atlari, moliyaviy

vositachilik rivojlanganlik darajasi, valyuta, kapital bozori holati, iqtisodiy subyektlar moliyaviy barqarorligi bilan belgilanadi.

Dasturga kiritilgan Chiroqchi tumanidagi “Chiroqchi kvars” xususiy korxonasining dala shpati ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha 2014 yilda 7000 tonna (404,0 mln.so'm) mahsulot ishlab chiqarish belgilangan bo'lib, haqiqatda 8601 tonna (448,8 mln.so'm) mahsulot ishlab chiqarilib, belgilangan yillik reja 111 foizga bajarildi.

2.2.5-jadval

Chiroqchi tumanida kapital qurilish va asosiy vositalarni foydalanishga topshirish to'g'risida ma'lumot

Ko'rsatkichlar	O'lcho v birli-gi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014yilda 2011yilga nisb.o'zg. (+;-)
1.Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya (amaldagi narxlarida)	mln. so'm	35745.0	51582.3	65871.0	76537.4	214.1
O'sish sur'ati	%	117.2	124.4	110.9	104.3	1.12 punktga kamaygan
shundan:						
Qurilish-montaj ishlariga (shartnoma narxlarida)	mln. so'm	33277.8	47318.4	63592.0	69916.3	210.1
Asbob uskunalar, mashina va dastgohlar sotib olishga	mln. so'm	2280.0	4263.9	1351.9	6621.1	290.4
Boshqalar	mln. so'm	187.2	x	927.1	x	-
2.Pudratchilar tomonidan bajarilgan pudrat ishlari (amaldagi narxlarida)	mln. so'm	36182.4	44603.3	51663.2	76397.3	211.1
O'sish sur'ati	%	133.3	122.6	100.8	113.6	1.2 punktga kamaygan
3.Foydalanishga topshirish:						
Uy-joylar - jami	ming kv.m	75.3	72.9	74.7	90.5	120.2
shundan:						
Korxona mablag'i	ming kv.m	x	x	x	x	-
Aholi mablag'i	ming kv.m	69.6	71.5	67.5	85.1	122.3
Namunaviy uy-joylar qurish	ming kv.m	5.4	1.4	7.2	5.4	100

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadval ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori 2014 yilda 2011 yilga nisbatan 214.1 foizga oshgan, 2013 yilga nisbatan investitsiyalar ko'lamini 104.3 foizga oshgan bo'lib, shundan qurilish-montaj ishlari uchun yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari tahlil qilinayotgan yillar davomida 210.1 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Asbob uskunalar, mashina va dastgohlar sotib olish uchun

yo‘naltirilgan mablag‘lar ham 2014 yilda 2011 yilga nisbatan 290.4 foizga ko‘paygan. Tumanda pudratchilar tomonidan bajarilgan pudratishlari miqdori 211.1 foizga ko‘payib, 2013 yilga nisbatan 113.6 foiz o‘shish ko‘rsatkichiga erishilgan. Demak, tumanda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ko‘lami oshib borishi bu sohalarida islohotlarning amalga oshirilishi va tumanda Davlat dasturlarining bajarilish darajasi yuqori ekanligidan dalolatdir.

2.3. Xususiy tadbirkorlikni tahlil qilish va istiqbolini belgilashning uslubi asoslari

Bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichida ham ishlangan va o‘ta muhim bo‘lgan O‘zbekiston hududlarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish monitoringini muntazam o‘tkazib borilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Vaholanki yangi xo‘jalik yuritish shakllari sharoitida hududlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalari, sur‘atlari mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda muhim ahamiyatga egadir. Chunki islohotlarning pirovard natijasi u respublika tarmoq yoki korxona doirasida amalga oshirilishidan qat’i nazar, avvalombor hudud darajasida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy islohotlarning monitoringi natijalarining zarurligi qo‘yidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan – hududiy milliy siyosatni ishlab chiqishda. Vaholanki, hududlarda mavjud muammolar, ularda erishilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi yutuqlar, kamchiliklar hamda ularning bozor munosabatlariga moslashuvi qay darajada ekanligi to‘g‘risida to‘liq va keng qamrovli tasavvurga ega bo‘lmay turib, mamlakat miqyosida to‘laqonli iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin emas.

Ikkinchidan, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tahlili natijalari nafaqat respublika darajasidagi boshqaruv tashkilotlari uchun balki, mahalliy xokimiyat vakilliklari uchun ham alohida hududlarni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan esa, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va bozor munosabatlarining shakllanishi bo‘yicha guruhlash mamlakat va chet el firmalari, korxonalari, banklari, birjalari uchun o‘zlarining u yoki bu hududda kapitalni joylashtirish uchun marketing informatsiyasi uchun analitik ma‘lumot bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

To‘rtinchidan, hududlar iqtisodiy monitoringi va reytingni aniqlashda mahalliy xokimiyat vakillari faoliyatining samaradorligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning oddiy usuli bo‘lib hududni u yoki bu ko‘rsatkich bo‘yicha xususiycha respublika ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash hisoblanadi. Ammo bunday taqqoslash mamlakat umumiy iqtisodiy holatida hudud xaqida umumiy tushuncha berishi mumkin, xolos.

Shuning uchun xam kompleks tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz. Buning uchun bizning fikrimizcha dastlabki bosqichda 100 ga yaqin ko‘rsatkich (indikator)lar tahlil qilinib, korelyatsion tahlil asosida ularning asosiylari ajratib olinadi va hududlar reytingini aniqlashda bevosita foydalaniladi.

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ko‘rsatkichlari (indikatorlari) beshta yirik blokda guruxlashtirilgani maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

Birinchi blok – hudud real sektorida sanoat, qishloq xo‘jaligi va qurilishda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar dinamikasini ko‘rsatadi. Hududlarda iste‘mol bozori shakllanishining ahamiyatini inobatga olgan holda, sanoat rivojlanishida xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarishning o‘shishi (pasayishi)ni hisobga olish zarur. Tadqiqotni yoki tahlilni yanada chuqurroq amalga oshirish maqsadida real tarmoqda iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi ularning hajmi, miqdori, turi, samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘shishi nuqtai nazaridan kengaytirilishi mumkin.

Ikkinchi blok – asosan mamlakatda va hududda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bunda jumladan, asosiy ko‘rsatkichlardan – foyda miqdori, pul emissiyasi, to‘lovlar muammolari kabilardir.

Hududlarda ijtimoiy muammolarni yechishning muhim masalalaridan biri ekanligidan kelib chiqqan xolda «Ijtimoiy rivojlanish» uchinchi bloki boshqalarga nisbatan o'zida ko'p ko'rsatkichlarni mujassamlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Bular asosan – hisobot davridagi tovar ayirboshlash va pulli xizmatlar hajmi, aholi real daromadlarining o'sishi, ishsizlik darajasi, yangidan tashkil etilgan ish o'rinlari soni va hokazolar.

To'rtinchi blokda hisobot davrida bozor munosabatlarini vujudga keltirishni tasniflovchi ko'rsatkichlar (indikatorlar) tizimi o'z aksini topgan bo'lib, ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin: xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi topshiriqlarining bajarilishi, hududlarda bozor infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining real ko'rsatkichlari va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xamda qishloq xo'jaligida turli mulk shakllarining rivojlanishi.

Beshinchi blok bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatga bag'ishlanadi. Hududlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini baholash asosan eksport hajmi hamda qo'shma korxonalarining eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu biz tomondan tavsiya qilinayotgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha reytingini aniqlash mezonlari bo'yicha ko'rsatkichlar (indikatorlar) tizimi hududlarni xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ustivor ko'rsatkichlari alohida ajratib ko'rsatilishi yoki ularga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Hududlar faoliyatini balli baholash va reytingini aniqlash tizimi.

Barcha hisob kitoblar 14 balli shkalada va taqqoslama narxlarda amalga oshiriladi. (hududlar soni bo'yicha) Eng yuqori 14 ball davlat dasturini bajarishda maxsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatkichida oldingi yilga nisbatan yuqori ko'rsatkichga erishgan viloyatga beriladi. Eng past ball past o'sishga erishgan viloyatga beriladi. Xuddi ushbu ballar barcha beshta blok bo'yicha aloxida to'ldirilib, ular umumlashtiriladi. Xuddi shu tariqa barcha hududlarning iqtisodiyotning real sektori, ijtimoiy soxa, tashqi iqtisodiy aloqa, moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy islohotlarning borishi holati aniqlanadi va qaysi yo'nalishlarda ularga davlat yordami ko'rsatilishi belgilanadi.

Hudud miqyosida xususiy tadbirkorlikni tahlil qilish va istiqbolini belgilashning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ko'pgina ilmiy tadqiqot va maqolalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi xolati mamlakat va viloyat miqyosida o'rganilgan.

Viloyat tumanlarida (shaharlarida) xususiy tadbirkorlikni tahlil qilishda reyting uslubidan foydalanish tavsiya qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 29 iyuldagi «2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1590–sonli qaroriga asosan mahalliyashtirish Dasturiga jami 13 ta korxonaning 23 ta loyihalari, shundan Respublika tasarrufidagi 6 ta korxonaning 10 ta loyihalari va hududiy tasarrufdagi 7 ta korxonaning 13 ta loyihalari kiritilgan.

Dasturga ko'ra 2014 yilda jami 128881,2 mln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarish belgilangan bo'lib, amalda 143220,6 mln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki belgilangan prognoz ko'rsatkich 111 foizga bajarildi.

Natijada 80625 ming AQSH dollari miqdorida erkin ayirboshlanadigan valyuta iqtisod qilib qolinib, 6 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shundan, Respublika tasarrufidagi korxonalar tomonidan 2013 yilda 139561,5 mln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, belgilangan reja (126000,7 mln.so'm) ko'rsatkichi 111 foizga bajarildi. Natijada 78493,4 ming AQSH dollari miqdorida ayirboshlanadigan valyuta iqtisod qilib qolindi va 1 ta yangi ish o'rni yaratildi.

2013 yilda dasturga kiritilgan hududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan jami 3789,3 mln.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, belgilangan yillik reja ko'rsatkichi (2880,5 mln.so'm) 132 foizga bajarildi.

Amalga oshirilgan ushbu loyihalar bo'yicha 2131 ming AQSH dollari miqdorida erkin ayirboshlanadigan valyuta iqtisod qilib qolindi.

2.3.1-jadval

Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyati tahlili

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014yilda 2011yilga nisb.o'zg. (%)
Tashqi savdo aylanmasi	ming doll.	15440.3	7688.6	10488.3	10082.1	65.3
Eksport	ming doll.	14173.1	6895.1	8794.2	7972.9	56.2
Import	ming doll.	1267.2	793.5	1694.1	2109.4	166.5
Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni	birlik	2	1	1	1	50
<i>shu jumladan:</i>						
Faoliyat ko'rsatayotgani	birlik	2	1	1	1	50
Chakana savdo tovar aylanmasi						
Tuman bo'yicha	mln.so'm	117487.5	176208.9	227556.4	353517.9	300.9
Davlat korxonalarida	mln.so'm	x	x	x	x	
Nodavlat korxonalarida	mln.so'm	117487.5	176208.9	227556.4	353517.9	300.9
Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan chakana savdo	so'm	356563	522565	658658	995545	279.2

Manba: Chiroqchi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadvalda tumanning tashqi savdo aylanmasi 2014 yilda 10082.1 ming dollarni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan 34.7 foizga kamaygan. Eksport hajmi ham tahlil qilinayotgan yillarda 43.8 foizga kamaygan. Import hajmi esa 66.5 foizga oshgan. Demak, tumanning tashqi iqtisodiy aloqalari keyingi yillarda ancha susaygan. Shu nuqtai nazardan import hajmi oshib, eksport hajmi kamayib ketgan. Tumanda xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni ham bittaga kamaygan. Shuni xulosa qilish kerakki, tumanda chorvachilik yaxshi rivojlangan bo'lishiga qaramasdan chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlab, eksport qilish imkoniyati ko'pligiga qaramasdan kichik biznes va xususiy korxonalarning faoliyati ancha pasayib ketganligini ko'rish mumkin.

Tumanlarida xususiy tadbirkorlikni rivojlanish darajasini baholash reytingi monitoring o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Monitoring asosan har chorak va yilda amalga oshirilib, uning maqsadi tumanlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi holatini kuzatish, mahalliy xokimiyat tashkilotlarini to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash, ushbu xususiy tadbirkorlik korxonalarining tumanlar ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarini rivojlanishiga ta'sirini aniqlash hamda ularning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan sabablarni aniqlashdan iborat.

Monitoringning (reytingning) asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tumanlarda xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga baho berish ularning tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash;
- xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi kamchiliklar va ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan sabablarni ochib berish;
- xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi asosiy ustuvor jihatlarini asoslash;

- xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga qaratilgan barcha chora-tadbirlar natijasini baholash;
- tumanlarda mavjud iqtisodiy va xom-ashyo resurslaridan kelib chiqqan xolda xususiy tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish hamda ularni rivojlantirish istiqbolini ilmiy asoslangan dasturlarini ishlab chiqish;
- tumanlarda xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ta'minlash va ularga mamlakat va chet el kompaniyalari bank va boshqa tashkilotlar sarmoyalarini jalb qilish bo'yicha keng qamrovli tadbirlar ishlab chiqish;
- tumanlarda xususiy tadbirkorlik rivojlanishi reytingini aniqlash bo'yicha axborot-tahlil ma'lumotlari tayyorlash.

Monitoring o'tkazish uning asosiy ko'rsatkichlari bo'lib xususiy tadbirkorlik subyektlarining barcha ko'rsatkichlari 9 soni mahsulot xajmi, miqdori, qiymati, band kishilar soni, xudud iqtisodiyotidagi tutgan o'rni va boshqalar) o'sish sur'atlari (pasayishi) va baxolash ko'rsatkichlari bo'yicha natijaviy ballari xisobot davri ma'lumotlari asosida xisoblanadi. Masalan, 2014 yil 2013 yil bilan taqqoslanib, yoki 2014 yil 1 kvartali 2013 yil 1 kvartali bilan taqqoslanadi.

Tahlilda monitoring o'tkazishga mas'ul xududiy tashkilotlarni barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chorak va yillik ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Xududlarda xususiy tadbirkorlik subyektlari rivojlanishini balli baxolash va reytingini aniqlash bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni xududlar iqtisodiy, tabiiy shart-sharoit va imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda tashkil etishda muxim rol o'ynaydi. Barcha xisob-kitoblar xududlarga mavjud tumanlar soniga qarab ball shkalasida amalga oshiriladi. Masalan, tahlil qilinayotgan Qashqadaryo viloyatida 13 ta tuman bo'lsa, 14 balli tizimda 10 ta bo'lsa 10 balli tizimda va xokazo.

Eng yuqori ball o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati ko'rsatkichlari yuqori natijalarga erishgan tumanga beriladi, xech qanaqa o'sishga erishmagan tumanga nol ball qo'yiladi.

Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha xar bir tumanning bali aniqlanadi.

Pirovard natijalar barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ballar umumlantirilib, soniga bo'linib xususiy ballar aniqlanadi. Agar xususiy ball qaysi tumanda yuqori bo'lsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tumanlardagi holati bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'linadi.

Tumanlarni xususiy ballari bo'yicha, o'rni (reytingi) aniqlanib, guruhlashtiriladi.

Ushbu ball baholashda asosiy maqsad tumanlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha erishilgan yutuqlar, kamchiliklar, foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlab, respublika viloyat va tuman boshqaruv tashkilotlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun aniq tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlikni rivojlanish darajasini tahlil qilar ekanmiz, shuni qayd qilib o'tish kerakki, asosiy natijalardan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tuman (shahar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyat bilan qanchalik o'zaro bog'liqligini ham ko'rib chiqish lozim.

Buning uchun avvalo tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga baho berish kerak. Biz baholashning reyting usulini qo'llashni taklif qilamiz. Tumanlarning ma'lum davr ichida (chorak, yil) rivojlanish darajasi quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali aniqlanishi mumkin:

- sanoat;
- qishloq xo'jaligi;
- investitsiyalar;
- ijtimoiy soxa;
- mexnat bozori va bandlik;
- maxalliy budjet va moliyaviy axvol;
- iste'mol bozori.

Eng yuqori ball o'tgan yilga (chorakka) nisbatan yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishgan tumanga beriladi va ular xisoblab chiqilgan ballar asosida turli guruxlarga bo'linadi. (yuqori, xususiy, past).

Tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va tadbirkorlikni rivojlanishi darajalarini aniqlashdagi reyting (ball) uslubini tumanlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatni aniqlashda foydalanish mumkin. Bu yerda asosiy e'tibor quyidagi salohiyatlarga qaratiladi.


- iqtisodiy (sanoat, qishloq xo'jaligi);
- ishlab chiqarish infratuzilmasi (asosan transport va aloqa);
- ijtimoiy infratuzilma;
- mineral xom-ashyo infratuzilmasi;
- suv va yer resurslari;
- ishchi kuchi resurslari;
- bozor infratuzilmasi.

Tahlil so'ngida hisob-kitob natijalari asosida tumanlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy-iqtisodiy salohiyat darajalari xususiysidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi. Shu asosda biz tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mavjud nomutanosibliklarni, ichki foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ochib berishimiz mumkin.

Bu usullarni amaliyotga tadqiq qilishda ko'pincha mamlakat, viloyat, tuman va shaxarlar xususiysidagi ijtimoiy-iqtisodiy birlik ko'pgina xollarda e'tibordan chetda qoladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik istiqbolini ana shu birliksiz amalga oshirish ma'lum nomutanosibliklarga olib kelishi mumkin. Shuni e'tiborga olgan xolda biz 2.3.1–chizmada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik istiqbolini belgilashning bosqichlarini taklif qilganmiz.

2.3.1-chizma

Hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollarini belgilash bosqichlari



Birinchi bosqichda davlat tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini hisobga olish zarur.

Ikkinchi bosqichda viloyatning imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda, uning kelajak istiqbollari e'tiborga olinadi.

Uchinchi bosqichda tuman (shahar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlari aniqlanadi.

To‘rtinchi bosqichda avvalgi bosqichlarni hisobga olgan holda, tumandagi imkoniyatlar va omillar asosida tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari belgilanadi.

Oxirgi to‘rtinchi bosqich natijalari asosida biz uchinchi, ikkinchi, birinchi bosqich natijalariga ma’lum o‘zgartirishlar kiritishimiz mumkin. Misol uchun viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hudud ichki maxsulotidagi ulushini (ko‘paytirish yoki kamaytirish) tumandagi tadbirkorlikni real imkoniyatlari asosida aniqlashtiriladi.

Bu yerda asosiy e’tibor tuman (shahar) miqyosidagi bor imkoniyat va salohiyatdan samarali foydalanish asosida tadbirkorlik istiqbollari belgilanishiga qaratilgan.

Yaqin va uzoq kelajakka mo‘ljallangan xususiy tadbirkorlikni istiqbol rejalarini aniqlash bilan bir qatorda, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish juda muhimdir. Mexanizmlar birligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- xuquqiy meyoriy xujjatlarni tayyorlash;
- tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish;
- davlat va mahalliy xokimiyat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va yordam berish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish.

Umuman olib qaralganda, biz taklif etgan xususiy tadbirkorlikni tahlil qilish va istiqbolini belgilash usullari asosan qo‘yidagilari bilan ajralib turadi:

- tahlil va istiqbolni belgilashda o‘zaro birlik va bog‘liqlik muammosiga e’tiborni qaratilganligi;

- hudud doirasida tuman (shahar)larni birlamchi asosiy tadqiqot obyekti sifatida e’tirof etilishi;

- tahlil va istiqbolni aniqlash natijalarini hududiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish o‘ta muhim ekanligini asoslab berilganligi.

Taklif etilayotgan uslublarni nafaqat Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida, balki mamlakatimizning barcha hududlarida xususiy tadbirkorlikni tahlil qilish va istiqbolini belgilashda foydalanish mumkin.

3-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirish istiqbollari

3.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari samaradorligini oshirish yo‘nalishlari

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darajasi, qolaversa mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog‘liqdir. Bu holat esa korxonalarining iqtisodiy erkinligini rag‘batlantirish darajasining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bu holat ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro‘y beradi.


Umumiy sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda istiqbolda o‘zgarishlar sanoat sohasiga talab natijasida sodir bo‘ladi, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarining rivojlanish hisobiga bu soha yanada yuksaladi. Savdo aylanmasining to‘liq muvofiqlashuvi natijasida bu sohada ko‘rsatkich ulushi pasayishi sodir bo‘ladi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi aytgan quyidagi iboralariga e’tibor qaratsak, ya’ni “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib hayot barpo

etish, oldimizda turgan murakkab va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish borasida qanday hal qiluvchi o'rin va ta'sirga ega bo'lib borayotganiga bugun amaliy hayotimizda har qadamda guvoh bo'lmoqdamiz. Va bu soha ertangi kunimiz, istiqbolimizning haqiqatan ham mustahkam poydevoriga aylanib, yanada rivojlanib borishi aniq va muqarrardir".

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotganligi hisoblanadi. Xususan, 2010 yilda kichik biznes subyektlari uchun belgilangan yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirilgan bo'lsa, 2011yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi. Buning natijasida bo'shab qolgan qariyb 80 milliard 300 million so'm mablag'ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'naltirish imkoni paydo bo'ldi.

2012 yilda soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish belgilanmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 6 foizdan 5 foizga tushirildi (3.1.1-rasm).



3.1.1-rasm. Kichik biznes subyektlari uchun belgilangan soliq stavkalari

Rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, 1996-2012 yillar mobaynida kichik biznes subyektlari uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 5 foizga yoki 7,6 martaga qisqardi.

Xususiy sektorda mablag'lardan samarali foydalanilish natijasida yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarish tufayli imkon qadar ko'p daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalarga erishilayotganini ta'kidlash joiz. Bularning barchasi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalarning asosiy maqsadidir. Ming afsuski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida hali-hanuz turli ma'muriy g'ov va to'siqlar saqlanib qolmoqda, mansabdorlar tomonidan ularning qonuniy manfaat va huquqlari buzilayotgani bilan bog'liq ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish yo'lidagi g'ov va to'siqlarni olib tashlashga qaratilgan chora-tadbirlar qatorida, avvalambor, xususiy tadbirkorlar uchun xomashyo resurslaridan foydalanish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish, uni yanada soddalashtirish, ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash zarur. Buning uchun esa resurslarni ochiq birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini kengaytirish lozim.

Tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik

va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Xususiyl mulkni rivojlantirish uchun uning ochiqlik darajasini va bu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasini aniqlash borasidagi baholash mezonlari haligacha ishlab chiqilmagan. Bu borada tegishli vazirlik va idoralar mazkur masala bilan jiddiy shug'ullanib, yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirishi, o'z navbatida, xususiyl biznesni rivojlantirish, jamiyatimizdagi barqarorlikning mustahkam asosi hisoblangan mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishda va mustahkamlashda rag'batlantiruvchi yangi omil va imkoniyatlar yaratishlari maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda kichik korxonalar tomonidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishini yaratilgan imkoniyatlardan faollik bilan foydalanish evaziga ta'minlash mumkin. Bizning hisoblarimizga ko'ra, 2015 yilga borib, respublika bo'yicha kichik biznesning ishlab chiqarilgan YAIM hajmidagi ulushini 61,1 foizga yetkazish, kichik tadbirkorlik korxonalarning yillik mahsulot ishlab chiqarishining o'sishi 2,5 foizdan kam bo'lmagan holatdagina amalga oshadi.

Buning uchun hududlardagi kichik tadbirkorlik korxonalarning respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan YAIM dagi ulushi istiqbolda qo'yidagi holatda o'sib borishiga erishish zarur (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

Respublika YAIMda hududlardagi kichik korxonalarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushining istiqbolda o'sib borishi (foiz hisobida)

Hududlar	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2015 yilda 2000 yilga nisbatan o'sishi
O'zbekiston Respublikasi	31,0	38,2	52,1	66,1	213,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,9	48,9	57,9	66,9	248,7
viloyatlar					
Andijon	32,9	38,7	49,9	61,1	185,7
Buxoro	33,0	44,4	51,1	57,8	175,2
Jizzax	37,1	64,4	73,0	79,8	215,1
Qashqadaryo	25,8	38,4	45,8	58,4	226,4
Navoi	21,5	20,9	33,5	46,1	214,4
Namangan	33,4	51,4	75,4	81,4	243,7
Samarqand	44,3	54,5	68,3	78,9	178,1
Surxondaryo	39,1	45,9	64,8	81,7	208,9
Sirdaryo	38,9	58,8	72,5	80,6	207,2
Toshkent	34,0	36,3	45,6	54,9	161,5
Farg'ona	32,0	43,9	64,7	82,3	257,2
Xorazm	34,2	54,2	78,3	81,9	239,5
Toshkent sh.	41,5	54,3	70,2	79,1	190,6

**O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi asosida hisoblandi.*

Albatta bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda, masalan AQSH da 75-82 foiz, Yaponiyada 81 foizni, Italiyada 74 foizni tashkil etadi. Respublikamiz kichik biznesning bunday ko'rsatkichlarga erishishi tadbirkorlik faolligi orqali amalga oshadi. Istiqbolda kutiladigan

natijalar asosan kichik tadbirkorlikning faol rivojlanishi evaziga ro'y beradi. Bu esa ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorining o'sish dinamikasini ta'minlaydi (3.1.2-jadval).

3.3.2-jadval

**Istiqbolda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik korxonalari tomonidan mahsulot
ishlab chiqarishning o'sishi (million so'm hisobida)**

Hududlar	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2015 yilda 2000 yilga nisbatan o'sishi foiz
O'zbekiston Respublikasi	892573,0	956838,2	1089938,7	1223039,2	137,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18786,6	22919,6	24982,3	27045	143,9
viloyatlar					
Andijon	70178,8	74249,1	82564,9	90880,7	129,5
Buxoro	46619,4	51934,0	55413,5	58893,1	126,3
Jizzax	31281,6	39821,3	43245,9	46670,5	149,2
Qashqadaryo	61485,8	69233,0	74356,2	79479,4	129,3
Namangan	50919,4	60084,8	74505,1	88925,4	174,6
Samarqand	67851,2	74772,0	85090,5	95409,0	140,6
Surxondaryo	82241,4	87833,5	104434,0	121034,5	147,2
Sirdaryo	34155,4	40952,3	46562,7	52173,1	152,8
Toshkent	110782,4	112665,7	123143,6	133621,5	120,6
Farg'ona	104838,6	117314,3	141715,6	166116,9	158,5
Xorazm	36708,7	44050,4	54666,5	65282,6	177,8
Toshkent sh.	219770,8	247901,4	287813,5	327426,6	148,9
Navoiy	24940,4	25065,1	29100,5	33135,9	132,9

**O'zbekiston statistikasi axborotnomasi asosida hisoblandi.*

Hududlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmining istiqbolda o'sib borish dinamikasini korxonalar miqdorining o'sib borish holati bo'yicha tahlil etsak, bu holat qo'shimcha yangi kichik korxonalarning tashkil etilishi hisobiga amalga oshadi.

Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan hududlarda yalpi hududiy mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi ta'minlanadi. Jumladan, kichik korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga istiqbolda ko'zlangan natijalarga erishish ta'minlanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

2015-yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi AQSH dollari hisobida 15 milliard 960 million dollarni yoki 2014-yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,1 foizga yetadi. Ushbu mablag'larning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish obyektlari qurilishiga, 43,1 foizi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi. Chet el investitsiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko'payadi.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

Birinchi navbatda amalga oshiriladigan vazifalar qatoriga daromad solig'i stavkasini 7,5 foizga kamaytirish kiradi. Shu bilan birga, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar

uchun yagona soliq to'lovi stavkasi, sanoat korxonalarida bo'lganidek, 6 foizdan 5 foizga tushiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli "2011-2015 yillarda Respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bank tizimi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmini 2011-2015 yillarda 2,7 baravarga oshirish;

- xalqaro moliya muassasalari va xorijiy mamlakatlar xukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdorini oshirish;

- tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armalarini tashkil etish, jamg'arma mablag'larini uzoq hamda borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek aholi zich yashovchi hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash uchun safarbar etish;

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash hajmini oshirib borish;

- mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni harid qilish uchun aholiga iste'mol kreditlari berishni yanada oshirish va boshqalar.


Mamlakatimizda bugungi kunda ish bilan band aholining 76,5 foizidan ortig'i aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida bandligi bu sohaga e'tiborni yanada kuchaytirishni, jumladan tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratishni ko'paytirishni va shu asosida yangi ish o'rinlarini tashkil etish, barqaror daromad manbalarini shakllantirishga zamin yaratish zarurligini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan mamlakatimizda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bevosita hal qilishga erishamiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo'lgan muhim sohaga aylanadi.

3.2. Xususiy tadbirkorlik faoliyatini diversifikatsiyalashda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilash chora-tadbirlarini amalga oshirishning muhim sharti va manbai sifatida faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'рни beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinini yaratish va shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Quyida berilgan diagrammada mamlakatimizga jalb qilingan va jalb qilinishi rejalashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yillar bo'yicha o'zgarish sur'ati keltirilgan.



**3.1.1-diagramma. Hududiy investitsiya dasturi doirasida
2012 yilda jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi**

Shunday ekan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar muhim o‘rin tutadi. Aynan ushbu omillarga investorlar tomonidan alohida e‘tibor beriladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda bu ko‘rsatkich yalpi kapital qo‘yilmalar hajmining 76 foizini tashkil etadi.

Bu mablag‘lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarning o‘z mablag‘larini ko‘paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo‘ladi.

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi alohida o‘rin egallaydi. Mazkur jamg‘armaning tarkibiy o‘zgarishlardagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga olgan holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 milliard dollardan ziyod mablag‘ jamlanadi.

2011-2015 yillarda yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini, mashinasozlik va avtomobilsozlikni rivojlantirish, elektr energetika sohasida energiya ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirish va diversifikatsiya qilish, metallurgiya sanoatini kompleks modernizatsiya etish, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan 4,7 milliard dollardan ziyod mablag‘ yo‘naltiriladi.

Mazkur jamg‘armaning eng muhim vazifalaridan biri strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish maqsadida yirik xorijiy investor va sheriklarni jalb etishdir. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan, umumiy qiymati 1,28 milliard dollarga teng bo‘lgan Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug‘-gaz moslamasini qurish loyihasi shular jumlasidandir.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo‘nilishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning eksport hajmini oshirish, turlarini ko‘paytirish, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarni rag‘batlantirish, ularga mahsulotlarini yangi jahon va mintaqaviy bozorlarga olib chiqishda ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 martdagi — Eksport qiluvchi korxonalarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh

mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-1731-sonli Qarori qabul qilindi.

O'z vaqtida qabul qilingan ana shu qaror natijasida 2012 yilda xorij sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan va mahalliy korxonalar tomonidan eksport qilingan tovar va

xizmatlarning umumiy qiymati 14150,1 million dollarni tashkil etdi. Shundan MDH mamlakatlariga 7629,2 million dollarlik tovarlar eksport qilingan bo'lib, bu umumiy eksport hajmining qariyb 54 foizini tashkil etadi. Shuorinda eksport tarkibiga razm soladigan bo'lsak (3.1.2-rasm), kimyo va kimyoviy mahsulotlarni eksport qilish natijasida 764,8 million dollar miqdoridagi valyuta yurtimizga kirib kelgan bo'lsa, eng yuqori eksport hajmi yoqilg'i va neft mahsulotlariga to'g'ri kelgan (4921.2 million AQSH dollari).

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovar va xizmatlar ro'yxatining kengayishi, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turlari (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo'lishiga barham berilishi, mahsulotlar eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytiradi, eksport hajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zgarishlarga ta'sirchanlik darajasini pasaytiradi.

Eksport tarkibini diversifikatsiyalashuv darajasini ko'rsatadigan indeks quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$DX_j = (\sum |h_{ij} - x_j|) / 2$$

Bunda: DX_j – ma'lum bir j mamlakat eksport tarkibining diversifikatsiyalashuv indeksi;

h_{ij} – ma'lum bir i xomashyoning j mamlakat umumiy eksporti tarkibidagi ulushi;

$\sum$ – yig'indi.

Shunga o'xshash yana boshqa bir indeks, ya'ni Herfindahl-Hirshman Index deb nomlanadi va UNCTAD tomonidan keng qo'llanadi:

$$H_j = \sqrt{\sum (x_i/X_j)^2}$$

Bunda: H_j – eksport tarkibining diversifikatsiyalashgan Xerfindal-Xirshman indeksi;

x_i – ma'lum bir j mamlakatning i mahsulot eksporti;

X_j – j mamlakatning umumiy eksporti;

$\sqrt{}$ – ildiz osti;

$\sum$ – yig'indi.


Dunyo davlatlarining yuqori diversifikatsiyalashgan Xerfindal-Xirshman indeksi 0,05 ko'rsatkichidan past bo'ladi. 0,005-0,1 – oralig'idagi ko'rsatkich kam diversifikatsiyalashgan eksport savatiga ega bo'lgan davlatlarni bildiradi. 0,1 va 0,4 oralig'idagi ko'rsatkichlar iqtisodiyotning ma'lum bir mahsulotlarga ixtisoslashuvini anglatadi. 0,4 dan yuqori ko'rsatkichlar yuqori ixtisoslashganlik darajasini bildiradi.

Eksport tarkibini diversifikatsiya qilish qo'shma korxonalar sonini ko'paytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, eksportdan tushadigan valyuta tushumlarini oshirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va natijada aholi turmush sharoitini oshirishga olib keladi.

Bir so'z bilan aytganda, 2011-2015 yillarda jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 18,6 milliard dollarni tashkil etishi yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. Ularning 75 foizdan ortig'ini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Bu borada qarz mablag'lari uzoq muddatli asosda faqat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy moliyaviy institutlarning kredit liniyalarini mamlakatimiz tijorat banklari orqali qayta moliyalashtirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etiladi.

So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, 2010 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 2690,2 mlrd.so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2011 yilda esa bu ko'rsatkich 4041 mlrd. so'mni, 2012 yilda 5346 mlrd.so'mni, 2013 yilda 6650 mlrd.so'mni, 2014 yilda esa 7500 mlrd.so'mni tashkil etdi (3.2.2-rasm).

3.2.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan



kreditlar miqdori.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2014 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar 2013 yilga nisbatan 1,2 barobarga oshib, 7 trillion 500 milliard so'mni tashkil etdi. Banklarning barcha filiallarida tadbirkorlarga yaqindan maslahatlar berish bo'yicha "Tadbirkorlar xonasi" tashkil etildi. Shuningdek, filiallar va mini banklarda tashkil etilgan "Tadbirkorlar burchagi" orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, taklif etilayotgan yangi bank xizmatlari to'g'risida doimiy ravishda axborot berib borilishi yo'lga qo'yildi.

2010-yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, davlat va ijtimoiy institutlar hamda sud tizimini isloh etish borasidagi vazifalarni izchil amalga oshirish eng ustuvor yo'nalish bo'lib qolayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'yan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur.

Ma'lumki, O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko'p marotaba boshidan kechirgan. Shu bilan birga, to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash, bo'yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o'zlashtirish asosida, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz.

Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko'plab rezerv va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin.

Bu o'rinda gap, avvalo, dastlabki xomashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo'lgan tayyor to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va pardozlash materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida bormoqda. bu borada tegishli vazirlik va idoralar, uyushmalar, kompaniyalar, birlashmalar va boshqarmalar 2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratishlari lozim deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida bu soha sezilarli darajada iqtisodiy faollikni ta'minlashga qaratilgan qator amaliy tadbirlar natijasida KBXT subyektlarining barqaror rivojlanishiga erishildi. Bunday ijobiy natijaga erishishda respublikamizda qabul qilingan alohida qonunlar tizimi, meyoriy xujjatlar, ayniqsa, Davlat dasturi asosida yaratilgan xuquqiy-meyoriy bazasi mustahkam zamin bo'ldi.

1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: sanoatda kichik biznes korxonalarining ulushini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni takomillashtirish, eksportbop mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi investitsiyalar hisobidan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, yangi korxonalar barpo etish orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshishini rag'batlantirish; fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yangi imkoniyatlar tug'dirish, xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish; qishloq xo'jaligi korxonalariga o'z mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni sotib olishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanishga ko'maklashish choralarni ko'rish lozim.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: mikrokredit va mikrolizing xizmatlarini asosan yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va xizmat ko'rsatish sohaslariga yo'naltirish; mikrokreditlardan foydalanilayotgan mijozlar sonida boshlang'ich sarmoyalardan foydalanadigan mijozlarni oshirish. Bunda yuridik shaxs maqomida mujassamlashmagan xususiy tadbirkorlik subyektlariga alohida e'tibor qaratish; kelgusida mikrokreditlarning asosiy qarz to'lovlari hamda ularga hisoblangan foiz to'lovlari to'liq qaytarilishini ta'minlash orqali muddati o'tgan qarzdorlikka yo'l qo'ymaslik va monitoring ishlarini kuchaytirish; mikrokreditdan foydalanadigan mijozlar soni muntazam oshib borishini inobatga olgan holda hamda ajratilgan mikrokreditlarning o'z vaqtida qaytarilishining ta'minlanishida muammolar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida joylarda bu mavzularga bag'ishlangan seminarlar o'tkazish va ularning samaradorligini oshirib borish kerak.

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan muntazam modernizatsiya qilib borish uchun samarali rag'batlantirish tizimini yaratish zarur. Bu borada modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlarini jadallashtirish uchun korxonalarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan yo'naltirilayotgan sarmoyalardan samarali foydalanish bu masalaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning bashoratlash viloyat, tuman va shaharlar o'rtasidagi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishidagi nomutanosibliklarni yo'qotish, tuman va shaharlarda kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik bir xil sur'atlarda izchil rivojlanishini ta'minlash, ularni rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llash lozim.

5. Aholi va tadbirkorlarning banklarga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, banklararo raqobat muhitini shakllantirish, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va ularning yangi turlarini rivojlantirish, mikrokreditlar berilishini sezilarli darajada kengaytirish lozim.

6. Olingan natijalarga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida innovatsiya faoliyatini rivojlantirishga tamomila yangicha yondashuvni joriy etish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq: raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan, fan sig'imi yuqori bo'lgan yuqori texnologik jihozlarni joriy etish; kichik tadbirkorlikda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning yangi vositalarini yaratish; ilmiy-tadqiqot faoliyatini investitsiyalashning bilvosita rag'batlantirish usullarini rivojlantirish lozim.

7. Mikrokreditlardan foydalanilayotgan jami mijozlar sonida boshlang'ich sarmoyalardan foydalanadigan mijozlar sonini 55,0 foizgacha yetkazish. Bunda yuridik shaxs maqomida mujassamlashmagan xususiy tadbirkorlik subyektlariga alohida e'tibor qaratish kerak. Joriy yilda ajratiladigan mikrokreditlarning asosiy qarz to'lovlarini hamda ularga hisoblangan foiz to'lovlarini to'liq qaytarilishini ta'minlash orqali muddati o'tgan qarzdorlikka yo'l qo'ymaslik va monitoring ishlarini kuchaytirish lozim.

8. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga davlatning aralashuvini cheklash ularning iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyatlarini oshirish, bankrotlik instituti rolini kuchaytirish, xo'jalik sudlarini faollashtirish lozim. Shuningdek, faoliyat erkinligi, har bir kishining tanlash imkoniyatiga ega bo'lishigina raqobat uchun keng yo'l ochadi va bu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda raqobat muhitining shakllanishini yo'lga qo'yish lozim.

9. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning kichik biznes va uni moliyalashtirish yuzasidan tajribalarini atroflicha o'rganish va samarali bo'lgan usullarni milliy iqtisodiyotning xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilish dolzarb masaladir. Bu esa, o'z navbatida, viloyat tumanlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni izchil rivojlantirish, buning natijasida, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish va aholi turmush darajasini ko'tarishga muhim zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymizki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishining barqaror manbasiga aylantirish lozim bo'lib, uni rivojlantirishda albatta investitsiyalarning muhimligi va shu asosida ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish darajasi yuqori bo'lishligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Huquqiy va meyoriy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., «O'zbekiston». 2014.– B.40.
2. Investitsion faoliyat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 24 dekabr 1998 yil. – T.: 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 2000. 25 may.
4. Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 14 aprel 1999 yil. – T.: 1999.
5. O'zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksi». 2007. – 25 dekabr. – B. 263.
6. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi». –T., «Adolat», –1999.– B.136 .
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. –T., 2009.– № 52. – B.17-54.
8. «Kredit uyushmalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 4 apreldagi qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 4 may, №95, b.1-2.
9. O'zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni; Xalq so'zi, 1997 yil avgust.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 yanvar 1995 yildagi «Xususiyl tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish haqida»gi Farmoni. // O'zbekiston ovozi. 8 yanvar 1995.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi PF-4053-sonli Farmoni. 2008. –28 noyabr.
12. «Davlat extiyohlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi Vazirlar maxkamasining qarori. 2002-yil 7 noyabr 383-son.
13. Xususiyl tadbirkorlik va kichik biznesni sug'urta yo'li bilan himoya etish «Madad» Agentligini tashkil etish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 iyul 1995 yildagi VII -1207 sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiyl tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1987-son Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Farmoni. 2003. 30 avgust.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni. 2003. 27 oktabr.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviyl qullab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish tug'risida»gi PF-1207-sonli Farmoni. 2003. 23 dekabr.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlarning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari tug'risida»gi Farmoni. 2003. 24 yanvar.
18. Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti UP-3620-son Farmoni. 20 iyun 2005 yil. // Bank axborotnomasi. 2005 3 avgust - №31 (482).
19. Tadbirkorlik subyektlarini xukukiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti UP-3619-son Farmoni. 14 iyun 2005 yil.
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviyl munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli

Qarori //Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T., «Fan». 2003. – B.16.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2007 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaligilarga aylantirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2006. – 11 noyabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asari va ma'ruzalari

22. Karimov I.A. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T., «O'zbekiston», 1995. – B.273.

23. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T., «O'zbekiston»,1998.– B.211.

24. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., «O'zbekiston», 1999. – B. 125.

25. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2009 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2009. 14 fevral.

26. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., O'zbekiston, 2009. – B.56.

27. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T., O'zbekiston, 2011. – B.47.

28. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichlarga ko'taradigan yil bo'ldi. – T., Xalq so'zi, 2012.

29. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // Xalq so'zi. – 19.01.2013.

30. Karimov I.A. Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. – 19.01.2014.

31. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustivor vazifamizdir. // Xalq so'zi. – 18.01.2015.

3. Monografiyalar, kitoblar, risolalar va ilmiy maqolalar

32. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik-T.: Fan, 2005-288 bet.

33. Abdug'aniyev A. “Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti” O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent, 2004 y, 304 bet.

34. Aybenov X., Raxmonov M., “Dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirish” T.: 57 bet. O'zbekiston Iqtisodiy Axborotnomasi -2004 yil 9-10 soni.

35. Aybenov X. Mamadaliyev A. Aybenova A. “Qishloq xo'jalik iqtisodiy islohotlar talab darajasida bo'lishi” – O'zbekiston Iqtisodiy Axborotnomasi -2004 yil 4-5-6 soni 18-bet.

36. Abdullayev Y. Ibrohimov A., Raximov M. Iqtisodiy tahlil. 100 savol va javob-T.: Mehnat, 2001-320 bet.

37. Abdullayev Y.A. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob, Mehnat, 1997.

38. Baratov M. Mulk – moddiy manba. // Iqtisod va hisobot № 10, 35-bet.

39. Vaxabov A., Ibrohimov A., Hakimov B. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – T.: TMI, 2003y, -176 bet.

40. Vaxabov A.V va boshq. Xorijiy investitsiyalar. – T.: Moliya, 2010 y, 328 b.

41. Волкова Н.А. и др. Экономика сельского хозяйства и перерабатывающих предприятий, М.: “Колос”, 2005 г, 240 с.

42. Ibragimov R. Xududiy tadbirkorlik istiqbollari. // Iqtisod va hisobot, № 3, 57 bet.

43. Ishmuhammedov A., Asqarova M. “O'zbekiston Milliy Iqtisodiyoti”, O'quv qo'llanma. Toshkent-2004 y, 154 b.

44. Salimov B., Hamdamov Q., Tursunxo'jayev T., “Jahon qishloq xo'jaligi”, O'quv qo'llanma. T.: -2004 y, 206 bet,.

45. Xakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M. "ASM iqtisodiyoti" T.: 2004 y, 45-51 bet., o'quv qo'llanma.
46. Hamdamov Q. "Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish", O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T.: -2004 y, - 206 bet.,
47. Ergashev R.X. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", Darslik. T.: "EKSTREMUM PRESS", 2011 y, -416 b.
48. Ismailova S.S. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini modernizatsiyalashda lizing kreditlarining ahamiyati.// Iqtisod va moliya jurnali. 2013 yil, 11-son.
49. Купаяниди К.И., Пайгамова Р.Р. Kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini modernizatsiya qilishning Buyuk Britaniya tajribasi va O'zbekistonda undan foydalanish imkoniyatlari.// Iqtisod va moliya jurnali. 2013 yil, 12-son
50. Maxambetova U.R. Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari. // Iqtisod va moliya jurnali. 2013 yil, 12-son.

4. Internet saytlari

51. www.msu.ru. – Московский Государственный Университет (экономический факультет)
52. www.rsute.ru.- Московская экономическая академия им. Г.Плеханова (экономический факультет)
53. www.tsue.uz.- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
54. www.osu.edu. –Oxayo Universiteti, iqtisodiyot fakulteti (AQSH)
55. www.umde.edu.- Merilend Universiteti, iqtisodiyot fakulteti (AQSH)
56. www.timacad.ru.- K.A.Timiryazev nomidagi Moskva davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti
57. <http://www.statistics.uz>.- O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi ma'lumotlari
58. www.cer.uz.- Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza
59. www.press-service.uz.- Prezident sayti
60. www.gov.uz.- Hukumat sayti
61. www.pravo.uz.- Законодательная база Республики Узбекистан
62. www.uzreport.com.- Новости Узбекистана